



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

IYUN

№ 77
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР 2-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 61-кўп тармокли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 29 февраль 2024 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2024. - 128 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини қутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
"Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт -

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Вохидова Меҳри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт -

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Музыка ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ЖАЗО ТУШУНЧАСИ

Алимбеков Жаҳонгир Худойкул ўғли
Ўзбекистон Республикаси судьялар
Олий Кенгаши ҳузуридаги судьялар
олий мактаби “Жиноят ҳуқуқи”
ихтисослиги бўйича
тингловчиси

АННОТАЦИЯ: Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида жазо тушунчаси ҳуқуқий жавобгарлик чораси сифатида тасвирланади, у жамиятни муҳофаза қилиш, қонуний тартибни сақлаш, жиноятларнинг олдини олиш, жиноятчини қайта тарбиялаш ва жамиятга интеграциялаш мақсадларида қўлланилади. Жазонинг асосий мақсадлари: жиноятчини жавобгарликка тортиш, профилактика, бошқаларни жиноятдан сақлаш ва жиноятчини ислоҳ қилишдир.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Жазо, жиноят кодекси, жазо турлари, жазонинг мақсадлари, жамият хавфсизлиги, жиноятчини ислоҳ қилиш, ёпиқ калит.

Жазо — жиноят содир этган шахсларга ҳуқуқий жавобгарлик белгиловчи, жамиятни муҳофаза қилиш ва қонуний тартибни сақлаш мақсадида қўлланиладиган чорадир. Жазо — бу фақат жиноятчига нисбатан мажбуров чоралари ёки ҳуқуқий чекловлар жорий қилишни эмас, балки жиноятнинг олдини олиш, жамиятни тўғри тартибга солиш ва жиноятчиларни қайта шакллантиришнинг самарали воситасидир.

Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодексида жазо тушунчаси ва унинг турлари аниқ ва мукамал белгиланган. Жазо турлари қўлланиладиган жиноятларнинг оғирлиги, жиноятчининг шахсияти, айбдорлик даражасига асосланган ҳолда белгилаш мумкин.

Жазо тушунчаси ва унинг асосий мақсадлари шундан иборатки жазо — бу жиноятчини жамиятдан ажратиш ёки унга муайян чекловлар қўйиш, унинг хулқ-атворини ўзгартиш ва жамиятга қайта интеграциялаш учун амалга ошириладиган ҳуқуқий чорадир. Жазо бир неча мақсадлар билан қўлланилади:

Жиноятни содир этган шахсни жазолаш: Жазо аниқ бир шахсни жиноят содир этгани учун жавобгарликка тортиш.

Профилактика: Жазо орқали бошқа шахсларни жиноятдан сақлантириш, яъни жиноятларнинг олдини олиш.

Қайта шакллантириш: Жиноятчига қайта тарбия бериш ва жамиятга қайта интеграциялашишини таъминлаш.

Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодексидаги жазо турлари

Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодексида жиноятчиларга нисбатан қўлланиладиган бир неча турдаги жазо чоралари белгиланган. Ушбу жазо турларининг ҳар бири жиноятнинг турига, оғирлигига ва жиноятчининг шахсиятига қараб танланади.

Жарима — жиноятчига молиявий етукликка эга бўлмаган ҳолда



қўлланиладиган жазо туридир. Жарима, жиноятчига ўзига етказилган зарарни молиявий йўсинда тўлаш имконияти бериши мумкин.

Мисол: Бир шахс йўл ҳаракати қоидаларини бузиб, одамни ёки мулкни зарарлаштирганида, суд унга жарима жазосини белгилайди. Агар у жаримани тўлашга имконияти бўлса, бу жазо қўлланилади.

Мажбурий жамоат ишлари жиноятчига муайян ишларни жамоат манфаатларига тўғри келадиган тарзда бажаришни мажбур қилишдир. Ушбу жазо асосан енгил жиноятларга нисбатан қўлланилади.

Мисол: Бир шахс кичик жиноят (масалан, фирибгарлик) содир этгани учун мажбурий жамоат ишлари билан жазоланади. Бу шахсни маҳаллий ҳокимликнинг жамоат хўжалиги ишлари билан шуғулланишга мажбур қилади.

Ахлоқ тузатиш ишлари жиноятчига ахлоқий ва маънавий қайта шаклланиш имконини яратиш мақсадида амалга оширилади. Бу жиноятчига шахсий хулқ-атворини тартибга солиш ва жамият билан муваффақиятли интеграциялашишини таъминлаш учун қўлланилади.

Мисол: Ёшлар орасида содир этилган жиноятларга нисбатан суд аниқ таҳлил ва мажбурий ахлоқ тузатиш ишлари режасини тузиши мумкин. Бу жазо шахснинг хулқ-атворини қайта шакллантиришга йўналтирилган.

Хизмат бўйича чеклаш бу жазо шахснинг хизмат фаолиятини, аниқ бир соҳадаги ишини чеклашни назарда тутди. Масалан, давлат хизматини ёки иш билан боғлиқ фаолиятни маҳкамалаган ҳолда қўлланилади.

Мисол: Бир давлат хизматчиси жиноят содир қилгани учун аниқ бир лавозимда ишлаш ҳуқуқидан маҳрум қилинади. Ушбу жазо жазо тартибининг бир қисми сифатида қўлланилади.

Умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси, жиноятчига эркинликдан тўлиқ айрилган ҳолда қўлланиладиган жазо тури бўлиб, жиноятнинг энг оғир шаклларида қўлланилади. Бу жазо, жиноятчининг жамиятга янада хавфли эканлигини ҳисобга олган ҳолда таърифланган.

Мисол: Қасддан одам ўлдириш, терроризм жиноятлари инсон ҳаётига хатар туғдирадиган жиноятлар учун умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси берилиши мумкин.

Жазонинг асосий мақсади жиноятларнинг олдини олиш, жиноятчиларни қайта шакллантириш ва жамият хавфсизлигини таъминлашдан иборат. Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодексидаги жазо турлари ҳар бир жиноятнинг оғирлигига ва жиноятчининг хулқ-атворини яхшилашга йўналтирилган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодексидаги жазо тушунчаси жиноятчига нисбатан таълим, тарбия ва жавобгарликнинг муҳим қисмини ташкил қилади. Жазо — бу жиноятларнинг олдини олиш, жиноятчини қайта шакллантириш ва жамиятнинг хавфсизлигини таъминлаш учун қўлланиладиган чорадир. Жазо жиноятчининг хулқ-атворини ўзгартиради, уни жамиятга қайта интеграциялашишга йўналтиради.



“КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ ИШЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ РЕЙТИНГ БАҲОЛАШ ТАРТИБИ ТЎҒРИСИДА”ГИ НИЗОМНИНГ МАЗМУН-МОҲИАТИ ТЎҒРИСИДА

Мамаюсупов Марс Нурмаметович

Денов туманлараро иқтисодий суди
судьяси, PhD,

Аннотация: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 81-сонли Қарорининг 2-иловасига мувофиқ тасдиқланган “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тартиби тўғрисида”ги Низом (кейинги ўринларда “Низом” деб аталади) барча давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан маҳаллий давлат ҳокимияти органларида коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолашни тартибга солади.

Калит сўзлар: низом, коррупция, рейтинг, индикатор, электрон платформа, баҳолаш.

Республикада ҳозирги кунда давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларида коррупцияга қарши курашиш, уни келтириб чиқараётган сабаб ва шарт-шароитларни аниқлаш ва бартараф этиш, олдини олиш, профилактик чораларни амалга ошириш, коррупцияга қарши мурасизликни шакллантириш борасида тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Хусусан, бир қатор вазирлик ва идоралар, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларида ISO 37001:2016 халқаро стандартига асосан коррупцияга қарши менежмент тизими жорий этилиб, коррупцияга қарши курашиш бўйича ички идоравий ҳужжатлар қабул қилинди.

Давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг коррупцияга қарши курашиш борасидаги фаолиятига оид самарадорлик кўрсаткичларини белгилаш ва уларни илғор халқаро стандартлар асосида баҳолаш тизимини жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 81-сонли Қарорининг 2-иловасига мувофиқ “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тартиби тўғрисида”ги Низом (кейинги ўринларда “Низом” деб аталади) тасдиқланди.

Низом барча давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан маҳаллий давлат ҳокимияти органларида коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш (кейинги ўринларда — рейтинг баҳолаш) тартибини белгилайди.

Мазкур рейтинг баҳолаш давлат ташкилотларининг коррупцияга қарши курашиш бўйича олиб бораётган фаолияти самарадорлигини пухта таҳлил қилиш, баҳолаш ва аниқланган камчиликларни бартараф этиш учун таклиф ва тавсиялар



ишлаб чиқиш мақсадида ўтказилади.

Давлат ташкилотларида коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тизими ва коррупциянинг олдини олиш бўйича бошқа халқаро стандартларнинг самарали жорий этилганлиги ҳамда амалиётга татбиқ қилинганлиги рейтинг баҳолашнинг объекти ҳисобланади.

Рейтинг баҳолаш Коррупцияга қарши курашиш агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) томонидан ташкил этилади.

Ушбу Низомга асосан, рейтинг баҳолаш алоҳида индикаторлардан ташкил топган қуйидаги йўналишлар бўйича амалга оширилади:

биринчи йўналиш — давлат ташкилотларида коррупцияга қарши курашиш бўйича механизм ва ҳуқуқий асосларнинг яратилганлиги ҳамда амалиётга татбиқ этилганлиги;

иккинчи йўналиш — коррупциявий хавф-хатарларни аниқлаш, баҳолаш ва уларни камайтириш бўйича тадбирларнинг амалга оширилганлиги;

учинчи йўналиш — давлат ташкилотлари раҳбарларининг коррупцияга қарши мурасасиз муносабатни кўрсатувчи хатти-ҳаракатларининг мавжудлиги;

тўртинчи йўналиш — ходимларнинг коррупцияга қарши курашишга оид ички тартиб-таомиллардан хабардорлиги ҳамда ушбу соҳада билим ва кўникмаларини ошириш бўйича тадбирларнинг амалга оширилганлиги;

бешинчи йўналиш — коррупцияга қарши курашиш бўйича тегишли соҳа ёки тармоқ кесимида аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, ушбу иллатга нисбатан мурасасиз муносабатни шакллантиришга қаратилган тарғибот тадбирларининг самарадорлиги.

Мазкур коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлиги

0 баллдан 100 баллгача рейтингда баҳоланиб, фаолият самарадорлиги «яхши», «қониқарли» ва «қониқарсиз» тоифаларга ажратилади.

Бунда, индикаторларни бажариш орқали:

81 баллдан 100 баллгача тўплаган давлат ташкилоти фаолият самарадорлиги — «яхши»;

55 баллдан 81 баллгача тўплаган давлат ташкилоти фаолият самарадорлиги — «қониқарли»;

55 дан паст балл тўплаган давлат ташкилоти фаолият самарадорлиги — «қониқарсиз» деб топилади.

Юқорида келтириб ўтганимиз, рейтинг баҳолаш йўналишлари бўйича баллар қуйидагича тақсимланади:

биринчи йўналиш — максимал 35 балл;

иккинчи йўналиш — максимал 30 балл;

учинчи йўналиш — максимал 15 балл;

тўртинчи йўналиш — максимал 15 балл;

бешинчи йўналиш — максимал 5 балл.

Агентлик ҳар йили 5 январга қадар «E-Anticor.uz» электрон платформаси (кейинги ўринларда — электрон платформа) орқали рейтинг баҳолашдан ўтказиладиган давлат ташкилотлари рўйхатини тузади ҳамда бу ҳақда уларни ёзма равишда хабардор қилади.

Давлат ташкилотлари томонидан ҳар чоракда (10 апрель, 10 июль ва 10 октябрга қадар) чораклик маълумотлар, ҳар рейтинг баҳолаш йили якунида (10



январдан кечиктирмай) эса йиллик маълумотлар электрон платформа орқали Рейтинг баҳолаш йўналишлари ва индикатор кўрсаткичлари жадвалини тўлдириш йўли билан киритиб борилади.

Агентлик мунтазам равишда давлат ташкилотлари томонидан электрон платформага киритилган маълумотларни таҳлил қилиб боради, коррупцияга қарши курашиш самарадорлиги «қониқарсиз» деб топилиши мумкин бўлган давлат ташкилотларига услубий ёрдам кўрсатади.

Рейтинг баҳолаш натижаларининг ҳолислигини таъминлаш мақсадида ҳар йили 9 кишидан иборат бўлган Рейтинг баҳолашни мустақил амалга оширувчи экспертлар гуруҳи (кейинги ўринларда — Экспертлар гуруҳи) шакллантирилади.

Экспертлар гуруҳи таркибини шакллантириш ва унинг фаолиятини ташкил этиш, шу жумладан экспертларни танлаб олиш мезонлари, уларнинг мажбуриятлари ва манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш механизмларини назарда тутувчи тартиб Агентлик томонидан белгиланади.

Экспертлар гуруҳи таркиби Агентлик томонидан давлат ташкилотлари таклифларига асосан шакллантирилади.

Агентлик рейтинг баҳолаш якунларига кўра коррупцияга қарши курашиш самарадорлиги «яхши», «қониқарли» ва «қониқарсиз» бўлган давлат ташкилотлари рўйхатини ҳар йили 1 март куни Коррупцияга қарши курашиш бўйича миллий кенгашга киритади ҳамда ўз расмий-веб сайтида ва оммавий ахборот воситаларида эълон қилади.

Агентлик томонидан рейтинг баҳолаш якунлари бўйича коррупцияга қарши курашиш самарадорлиги «яхши» деб топилган давлат ташкилотларининг ижобий иш тажрибасини бошқа давлат ташкилотларида оммалаштириш бўйича тегишли чора-тадбирлар амалга оширилади.

Коррупцияга қарши курашиш самарадорлиги «қониқарсиз» деб топилган давлат ташкилотлари ҳар йили 20 мартга қадар коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқиши ва уни Агентлик билан келишилган ҳолда тасдиқлаши лозим бўлади.

Агентлик, зарурат бўлганда, рейтинг баҳолашнинг қўшимча йўналишлари ва индикатор кўрсаткичларини киритиши мумкин.

Хулоса ўрнида, мазкур Низом давлат органлари ва ташкилотларида коррупцияга қарши курашиш, давлат органлари ва ташкилотларининг очиқлигини таъминлаш ва коррупциянинг олдини олишда муҳим аҳамиятга эга меъёрий ҳужжат десак муболаға қилмаган бўламиз.

Шу билан бирга, Низом коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини баҳолаш механизмлари соҳада амалга оширилаётган тадбирларга ягона мезон асосида ҳолисона баҳо бериш ва уларнинг натижадорлигини янада оширишга хизмат қилиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - <https://lex.uz/>;
 2. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни;
- №. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январдаги 81-сонли Қарори - <https://lex.uz/>



ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА ЗАМОНАВИЙ ВИДЕОКОНФЕРЕНЦАЛОҚА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ: ИНВЕСТИОРЛАР УЧУН ҚУЛАЙ ЭЛЕКТРОН АДОЛАТ ТИЗИМИ.

Хусанов Саидмурод Жўраевич
Шеробод туманлараро иқтисодий
суди раиси,

Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 11 мартда қабул қилинган [«Аҳолига суд муҳокамаларида масофадан иштирок этиш учун янада қулай шароитлар яратилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»](#)ги ЎРҚ-1047-сонли Қонуни миллий суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, очиқлик ва шаффофликни таъминлаш, шунингдек, иқтисодий судлар фаолиятини рақамлаштириш орқали самарадорликни оширишга қаратилган муҳим ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади.

Бу қонун билан иқтисодий суд жараёнларида электрон шаклда иштирок этишнинг ҳуқуқий асослари янада мустаҳкамланди. Хусусан, суд ишларида электрон ҳужжатлардан фойдаланиш, электрон рақамли имзо билан тасдиқланган ҳужжатларни тақдим этиш, мобиль қурилмалар орқали иштирок этиш имкониятлари кенгайтирилди.

Суд жараёнида мобиль қурилмалар орқали иштирок этиш имконияти ЎРҚ-1047 қонуни асосида иқтисодий суд муҳокамаларида масофавий иштирок этиш, жумладан мобиль телефонлар, планшетлар ва бошқа замонавий қурилмалар орқали суд мажлисларига онлайн тарзда уланиш имкони яратилди. Бу нафақат маҳаллий тадбиркорлар, балки чет эллик инвесторлар учун ҳам жуда қулай ҳисобланади. Улар ўз мамлакатидан туриб, суд мажлисларида реал вақтда иштирок этиши, онлайн гувоҳлик бериши ва онлайн ўз қонуний манфаатларини ҳимоясини амалга ошириши мумкин.

Иқтисодий судларда ҳужжатларни қоғоз шаклда эмас, балки электрон кўринишда, электрон рақамли имзо билан тасдиқланган ҳолда тақдим этиш имконияти яратилган. Бу имконият қуйидаги афзалликларни беради:

- Ҳужжатларни тезкор тақдим этиш ва қабул қилиш;
- Транспорт харажатларини қисқартириш;
- Ҳужжатларни сақлаш, архивлаш ва қайта кўриб чиқишнинг осонлашиши;
- Суд жараёнларида шаффофлик ва ишончни ошириш.

Чет эллик инвесторлар учун судлашув жараёнларидаги электрон қулайликлар жуда муҳим аҳамият касб этади. Улар суд ишини онлайн кузатиш, онлайн электрон ҳужжат тақдим этиш ва суд мажлисида онлайн адвокатлари орқали ҳимоялаш имкониятига эга бўлган ҳолда, ўз бизнес манфаатларини самарали ҳимоя қилиши мумкин. ЎРҚ-1047 қонуни ушбу имкониятларни ҳуқуқий жиҳатдан кафолатлаб берди.

Хулоса қилиб айтганда, замонавий иқтисодий судлов тизими рақамлаштириш ва электрон технологияларга асосланган ҳолда жадал ривожланмоқда. ЎРҚ-1047-сонли Қонун билан киритилган ўзгартиш ва



қўшимчалар Ўзбекистонда ҳуқуқий адолатнинг фуқаролар ва инвесторлар учун янада очиқ, самарали ва замонавий шаклда таъминланишига хизмат қилмоқда. Шу орқали мамлакатимизда инвесторларга қулай ҳуқуқий муҳит яратилиб, иқтисодий барқарорликка ҳисса қўшилмоқда.

Фойдаланилган манбалар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ЎРҚ-1047-сон, 2025 йил 11 март — www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси — www.lex.uz
3. Ягона интерактив давлат хизматлари портали — my.gov.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди расмий сайти — www.supcourt.uz
5. Электрон рақамли имзо тўғрисидаги қонун — www.lex.uz



ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА ШАРТНОМАНИ БЕКОР ҚИЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.

Жаббаров Толмас Рузимуродович

Шеробод туманлараро иқтисодий

суди судьяси

Аннотация: мақолада жисмоний ва юридик шахслар ўртасида тузилган шартномаларни ихтиёрий ёки суд орқали ўзгартириш ва бекор қилишнинг ўзига хос жиҳатлари ҳақида ёритилган.

Калит сўзлар: шартнома, мажбурият, шартномани ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги таклиф, шартномани жиддий бузиш, шартномани бекор қилиш тўғрисидаги қилишув.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси (бундан буён матнда ФК деб юритилади)нинг 353-моддаси биринчи қисмига кўра, икки ёки бир неча шахснинг фуқаролик ҳуқуқлари ва бурчларини вужудга келтириш, ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги қилишуви шартнома дейилади.

Мазкур Кодекснинг 354-моддаси биринчи ва иккинчи қисмида, фуқаролар ва юридик шахслар шартнома тузишда эркиндирлар, шартнома тузишга мажбур қилишга йўл қўйилмайди, шартнома тузиш бурчи ушбу Кодекста, бошқа қонунда ёки олинган мажбуриятда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно эканлиги белгилаб қўйилган.

Биламизки, фуқаролар ҳамда юридик шахслар, тадбиркорлик субъектлари ўртасидаги аксарият низолар шартномавий муносабатлардан келиб чиқади.

Ваҳоланки, ФКнинг 234-моддаси иккинчи қисмига кўра, мажбуриятлар шартномадан, зиён етказиш натижасида ҳамда ушбу Кодекста кўрсатилган бошқа асослардан келиб чиқади.

Қонунчилигимизда шартномани бекор қилишнинг ҳамда ўзгартиришнинг ўзига хос жиҳатлари белгилаб берилган.

Хусусан, ФКнинг 382-моддасига кўра, агар ушбу Кодекста, бошқа қонунларда ёки шартномада бошқача тартиб назарда тутилган бўлмаса, шартнома тарафларнинг қилишувига мувофиқ ўзгартирилиши ва бекор қилиниши мумкин.

Тарафлардан бирининг талаби билан шартнома суд томонидан фақат қуйидаги ҳолларда ўзгартирилиши ёки бекор қилиниши мумкин:

- 1) иккинчи тараф шартномани жиддий равишда бузса;
- 2) ушбу Кодекс, бошқа қонунлар ва шартномада назарда тутилган ўзга ҳолларда.

Тарафлардан бирининг шартномани бузиши иккинчи тарафга у шартнома тузишда умид қилишга ҳақли бўлган нарсадан кўп даражада маҳрум бўладиган қилиб зарар етказиши шартномани жиддий бузиш ҳисобланади.

Бир тараф шартномани бажаришдан тўла ёки қисман бош тортиб, қонун ёҳуд тарафларнинг қилишувида бунга йўл қўйилса, шартнома тегишлича бекор қилинган ёки ўзгартирилган ҳисобланади.

Шартномани суд томонидан бекор қилиш тўғрисидаги низоларни кўриб чиқишнинг ўзига хос жиҳатлари шундаки, аввало шартнома тарафлари



шартномани бекор қилишда ФКнинг 384-моддаси талабларига риоя қилинганлиги ҳолатига аниқлик киритиш лозим бўлади.

Хусусан, ФКнинг 384-моддасида, шартнома қандай шаклда тузилган бўлса, уни ўзгартириш ёки бекор қилиш тўғрисидаги келишув ҳам шундай шаклда тузилади, башарти қонунчиликдан, шартнома ёки иш муомаласи одатларидан бошқача тартиб келиб чиқмаса.

Бир тараф шартномани ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги таклифга иккинчи тарафдан рад жавоби олганидан кейингина ёки таклифда кўрсатилган ёхуд қонунда ёинки шартномада белгиланган муддатда, бундай муддат бўлмаганида эса - ўттиз кунлик муддатда жавоб олмаганидан кейин, шартномани ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги талабни судга тақдим этиши мумкин, деб белгиланган.

Бундан шуни тушуниш мумкинки, аввало шартнома қандай шаклда тузилган бўлса, уни ўзгартириш ва бекор қилиш ҳам худди шундай тарафларнинг ўзаро розилигига асосан келишув тузиш орқали амалга оширилади.

Агарда шартномани ўзгартириш ёки бекор қилишга шартнома тарафларидан бири рози бўлмаган тақдирда, у суд орқали бекор қилиниши мумкин. Бу ҳолатда шартномани ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳоҳиши бўлган тараф уни ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги ўз таклифини шартноманинг иккинчи тарафига юбориши лозим бўлади.

Ўзининг таклифига рад жавоби олгандан кейингина ёки таклифда кўрсатилган ёхуд қонунда ёинки шартномада белгиланган муддатда, бундай муддат бўлмаганида эса - ўттиз кунлик муддатда таклифига жавоб олмаган шартнома тарафи шартномани ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги даъво талаби билан судга мурожаат қилиш мумкин.

Зеро, Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодексининг 148-моддаси иккинчи қисмида, агар қонунда муайян тоифадаги низолар учун судгача ҳал қилиш (талабнома юбориш) тартиби белгиланган ёхуд бу тартиб шартномада назарда тутилган бўлса, фақат тарафлар ўзаро муносабатларини ихтиёрий равишда ҳал қилиш чораларини кўрганларидан кейингина судда иш қўзғатилиши мумкинлиги белгиланган.

Мазкур Қонун нормасига риоя қилмаслик келгусида даъво аризасининг суд томонидан кўрмасдан қолдирилишига сабаб бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. //www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди Пленумининг 2009 йил 18 декабрь кундаги “Хўжалик шартномаларини тузиш, ўзгартириш ва бекор қилишни тартибга солувчи фуқаролик қонун ҳужжатлари нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 203-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 29.08.1998 йилдаги 670-I-сон



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O'ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING HUQUQIY ZARURATI

Ibragimov Mirfayz Ikrom o'g'li

Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti

Toshkent davlat yuridik universiteti

e-mail: mirfayzibragimov1126@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda jamoatchilik nazorati institutining demokratik boshqaruvdagi o'рни tahlil qilingan. Xususan, Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Kanada va Yangi Zelandiyada mazkur 14uy o'1414te fuqarolarning davlat faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish, ochiqlikni ta'minlash va hokimiyatni muvozanatlash mexanizmi sifatida xizmat qilayotgani qayd etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishining konstitutsiyaviy huquqi sifatida e'tirof etilgani ushbu institutni mustahkamlash uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilgani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, inson huquqlari, fuqarolik tashabbusi, huquqiy madaniyat, jamiyat, ochiqlik, shaffoflik, ekspertiza.

Bugungi kunda dunyoning "Ranking of countries in the level of political and civil freedoms" reytingiga kiruvchi, fuqarolik jamiyatining o'ta rivojlangan ko'rinishiga ega davlatlar (Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Yangi Zelandiya, Kanada)da aynan jamoatchilik nazorati institutining rivojlangani ushbu davlatlarning mazkur reytinglarda yuqori o'ringa ko'tarilishining asosiy sababi ekanligini ko'rsatmoqda [1]. Bu esa, jamoatchilik nazorati institutining mavjudligi va samarali faoliyati ulardagi davlat organlarining 14uy o'14 hokimiyatga ega bo'lishlarini "tiyib turuvchi" mexanizmlardan biri sifatida baholanadi. Shu sababli, boshqa demokratik siyosiy tizimlarda ham jamoatchilik nazorati institutlarining fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish, davlat hokimiyati organlari tizimini nazorat qilish, bu orqali fuqarolik jamiyatining davlat bilan muvozanatini ta'minlash, jamiyat a'zolarining manfaatlarini siyosiy tizimda ifodalanishiga erishish, hokimiyat organlarining ochiqlik va shaffoflik asosida faoliyat olib borishi, qolaversa, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi faoliyatini tobora faollashtirish dolzarblashmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mexanizmlarining ilmiy asoslarini yanada mustahkamlash tobora zaruriyatga aylanmoqda. Yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilganidek: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi" [2].

Zero, "jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir" [3]. Bu borada fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini ilmiy



tadqiq etish va amaliyotga joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda jamoatchilik nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

birinchidan, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga petitsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari);

ikkinchidan, hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiqligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oshkoraligi);

uchinchidan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ilishlari va yig'inlari orqali fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;

to'rtinchidan, oshkoralik tarzida eshitishuvlar;

beshinchidan, qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari;

oltinchidan, qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;

yettinchidan, jurnalistik tekshiruvlar va boshqalar [4].

Yevropa davlatlari hamda AQShda jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish uchun davlat tomonidan axborotlar ochiqligini ta'minlovchi maxsus aktlar qabul qilingan. Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari, turli jamoat kengashlari va ijroiya hokimiyati tarkibidagi qo'mitalar faoliyati qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu jarayonda volontyorlik harakati, fuqarolik tashabbuslari, ommaviy muhokamalar, ovoz berish, petitsiyalar topshirish, mustaqil ekspertiza hamda jurnalistik tekshiruvlar muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Yevropa davlatlarining jamoatchilik nazoratiga doir tajribasini o'rganish davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, "jamoatchilik nazorati faqat jamiyat fuqaroviylik darajasiga ko'tarilgandagina o'zining samara va ijobiy natijasini beradi" [5]. Masalan, Buyuk Britaniyada fuqarolar o'zlarining ixtiyoriy roziligi asosida politsiyaga yordam berish ishlariga jalb etiladi. Daniya, Fransiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Germaniyada jinoyatlarning oldini olish bo'yicha jamoatchilik kengashlari shakllantirilgan bo'lib, bu kengashlarning boshqaruviga ko'pincha obro'li siyosatchilar boshchilik qiladi. Mazkur kengashlar jinoyatlar manzarasini aniqlash, mahalliy sharoitda ularga qanday ta'sir etish, ularning sabablarini tahlil etish, jinoyatlarning oldini olish omillarini 15uy o1515 ishlari bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Shvetsiyada davlat ijroiya hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish hokimiyati organlari fuqarolarning so'rovlariga darhol javob berishlari qoidasi o'rnatilgan bo'lib, har bir hokimiyat organi rasmiy hujjatlar reyestrini yuritishi belgilangan, ulardan ko'pchiligi fuqarolar va ularning institutlari foydalanishlari uchun ochiqligi qoidasi belgilangan. Hozirgi davrda ham mazkur reyestrlarning 15uy o1515t ko'rinishidan erkin ravishda foydalanish mumkin. Finlyandiya qonunchiligiga binoan hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi axborotlar aks etgan hujjatlar saqlanishi, davlat hokimiyati organlari fuqarolarni o'z faoliyati to'g'risida xabardor qilishga majbur ekanligi qonunning eng muhim jihatlaridir. Shuningdek, hokimiyat organlariga o'z faoliyatlari to'g'risida hisobotlar va statistikani nashr etishlariga majbur ekanligi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, hukumat majlislari jamoatchilik uchun ochiqligi e'lon qilingan [5].

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati



rivojlangan davlatlarda – xususan, Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Yangi Zelandiya va Kanada kabi mamlakatlarda – jamoatchilik nazorati 16uy o1616te siyosiy va fuqarolik erkinliklarini ta'minlashning muhim kafolati sifatida xizmat qilmoqda. Bu 16uy o1616te davlat organlarining 16uy o16 hokimiyatga ega bo'lishining oldini olish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, ularning manfaatlarini siyosiy tizimda ifoda etish, shuningdek, davlat hokimiyati faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda jamoatchilik nazorati fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi bevosita ishtirokining konstitutsiyaviy huquqi sifatida e'tirof etilgani ushbu institutni rivojlantirish yo'lida muhim huquqiy asos yaratdi. Mamlakatimizda ushbu institutni mustahkamlash, xalq ishtirokini kengaytirish, davlat organlari ustidan samarali nazorat o'rnatish bo'yicha tizimli yondashuvlar talab etiladi.

Dunyo davlatlarining ilg'or tajribasi, xususan, Yevropa va AQShda jamoatchilik nazorati turli shakllarda: petitsiyalar, jamoat muhokamalari, ekspertiza, jurnalistik tekshiruvlar, ochiq eshituvlar, volontyorlik harakatlari orqali amalga oshirilayotgani, 16uy o'nalishda chuqur institutsional yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlarda davlat organlari fuqarolarga axborot taqdim etish bo'yicha yuridik majburiyatga ega bo'lib, bu holat hokimiyat faoliyatining oshkoraligini oshiradi va ishonch muhitini mustahkamlaydi. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining samaradorligini ta'minlash, uni zamonaviy demokratik talablarga mos tarzda takomillashtirish, mexanizmlarini huquqiy va ilmiy jihatdan chuqur asoslash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda fuqarolik jamiyatining davlat bilan barqaror muvozanatga erishishiga ko'maklashuvchi mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ranking of countries in the level of political and civil freedoms. Freedom house: Freedom in the world 2023 // <https://gtmarket.ru/ratings/freedom-in-the-world>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2019 yil 7 dekabr. // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. -T.: "O'zbekiston" NMIU. -B.109.
4. Jalilov A. Muhammadiyev U. Jo'rayev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari. – Toshkent, 2015, -B. 142. (264 b.)
5. Смирнов, С.Н., Сидорина, Т.Ю. Социальная политика: Учебное пособие. –М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004, -С.115.
6. Alimova M.Sh. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini kuchaytirish (xalqaro tajriba va milliy amaliyotga qo'llash masalalari). Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati, - Toshkent. 2023. -B.13.



7. Sobirovich, T. B. (2021). The national and universal principles of democracy in the Central Asian context. International journal of advanced research and review, 6(1), 30-34.
8. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.
9. Sobirovich, T. B. (2021). National Principles of Democracy in Uzbekistan. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS), 5(3), 131-135.



QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Sharipov Firdavs Xolnazarovich,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati
ORCID: 0009-0006-5732-0293
e-mail: firdavs1983xxx@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar tahlil qilingan. Xususan, norma ijodkorligida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, qonun hujjatlarining samaradorligini oshirish, havolaki normalarni kamaytirish kabi yo'nalishlar yoritilgan. Shu bilan birga, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiyliigi, xalqchilligi va xalqaro mezonlarga mosligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan institutsional va huquqiy mexanizmlar tahlil berilgan. Maqolada shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qonun ijodkorligi, huquqiy islohotlar, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonun, havolaki norma, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, parlament faoliyati, qonun hujjatlarining hayotiyliigi.

Davlat boshqaruvi mexanizmlari, avvalo, norma ijodkorligi, xususan qonun ijodkorligi faoliyati orqali amalga oshirilishi o'z isbotini topgan haqiqat. Qonun ijodkorligi – bu murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning samaradorligi bevosita qabul qilinayotgan huquqiy normalarning hayotiyliigi va xalqchilligiga bog'liq. Zero, har bir fuqaro huquqiy normalarda o'z hayoti, farovonligi va kelajagining huquqiy kafolatlarini ko'rishni istaydi.

Qonun ijodkorligi Qonunchilik palatasi faoliyatining eng asosiy yo'nalishi, birinchi galdagi sanaladi. Albatta, qabul qilinayotgan qonunlarning har jihatdan mukammal bo'lishi aholi farovonligini oshirishga, qonunlar inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Oliy Majlisning bu boradagi faoliyat sifatini oshirib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontsepsiyasi [1] qabul qilingan edi. Ushbu hujjat norma ijodkorligi faoliyatiga zamonaviy yondashuv va yangicha mazmun olib kirdi. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan oshirish bilan birga qabul qilinayotgan qonunlarning har jihatdan takomillashib xalqchil bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Qolaversa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qonun ijodkorligi sohasidagi ishlarda ham yangi tartib-qoidalarni joriy etmoqda.

Mazkur sohani rivojlantirishga oid «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi [2] hamda yangi tahrirdagi «Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida»gi [3] kabi muhim Qonunlar qabul qilindi.

Shu o'rinda, qonun ijodkorligining hayotga joriy etilgan ayrim jihatlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Jumladan, qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga,



O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu esa, davlatimizning xalqaro maydondagi xalqaro huquqlar va majburiyatlarining to'laqonli bajarilishiga, yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirilishiga, umuman mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshishiga xizmat qilmoqda. Bu o'z navbatida natijasini ko'rsatib 2017-2023 yillarda O'zbekiston «Qonun ustuvorligi» (Rule of Law) indeksi bo'yicha 5 pog'onaga hamda «Butunjahon boshqaruv ko'rsatkichlari» (WGI) indeksida 24 pog'onaga yuqoriladi[4].

Yangi tahrirdagi qonun hujjatini qabul qilish o'rniga yangi qonun hujjatini qabul qilish va bir vaqtning o'zida amaldagi qonun hujjatini o'z kuchini yo'qotgan deb topish amaliyoti joriy etildi. Bu o'z navbatida turli charkashliklar va tushunmovchiliklarni bartaraf etilishiga olib keldi. «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi [5], «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi [6], «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi [7], «Rasmiy statistika to'g'risida»gi [8], «Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida»gi [9], «Sudlar to'g'risida»gi [10] Qonunlar ana shu tartib taomil asosida qabul qilingan.

Muhim jihati "qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart", degan ustuvor tamoyil asosida qonun ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik jalb qilinmoqda. Qonun loyihalari keng muhokamaga qo'yilib, fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflarini o'rgangan holda tayyorlash, aholi o'rtasida ochiq muhokamalar o'tkazishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki, qonun loyihalarini siyosiy partiyalarning hududiy organlari hamda xalq deputatlari mahalliy Kengash deputatlari bilan ham muhokama qilinib, ularning takliflari olinishi bu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirmoqda.

Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan, ya'ni ijro etilishi uchun yana bir hujjat ishlab chiqilishi talab etmaydigan qonunlarni qabul qilishga e'tibor kuchaydi. Qonun ijodkorligi jarayoniga bu kabi yangi yondoshuvlarning tatbiq etilishi natijasida qonun hujjatlarining natijadorligi va hayotiyliigi oshmoqda. «Er uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida»gi [11], «O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida»gi [12] qonunlar shular jumlasidandir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi mas'uliyatini yanada oshirish uchun qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida birinchi o'qishda ko'rib chiqilayotganda tashabbuskor sub'ekt yoki uning vakili ma'ruza bilan chiqishi va himoya qilishi belgilandi. Bu qonun loyihasi sifatini yaxshilashga, sub'ektlarning ushbu jarayondagi faolligini yanada kuchaytirishga va loyiha muhokamasining yanada jonlanishiga xizmat qilmoqda.

Yana bir masala, sir emas, jamiyatdagi o'zgarishlar, islohotlar shiddat bilan olib borilayotganini o'z hayotimizda guvohi bo'layapmiz. Ushbu islohotlarning qonuniy bazasini o'z vaqtida mustahkamlash esa yanada muhim. Buning natijasida qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish holatlari ortib bormoqda. Tahlillarga ko'ra, quyi palata tomonidan 2020-2024 yillar davomida 580 ta qonun loyihasini o'z ichiga olgan jami 436 ta Qonun qabul qilinib, ma'qullash uchun Senatga yuborilgan. Shundan 274 tasi ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarining shakli hamda rasmiylashtirish tartibi



takomillashtirildi. Ya'ni, ularda ushbu o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyatini xalqimizga tushunarli tarzda, sodda, xalqchil va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan muqaddimalarni bayon etish amaliyoti joriy etildi. Muqaddimada esa kiritilayotgan yangilikning sababi, maqsadi, zarurati, masalaning dolzarbligi va natijasi ochib beriladi. Bu o'z navbatida fuqarolarga, qonunni qo'llovchilarga sodda va xalqchil tilda tushunish imkonini bermoqda.

Shu o'rinda aytish kerakki, qonun ijodkorligi sohasida ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. Jumladan, qonun loyihalaridagi havolaki normalar yoki ijtimoiy munosabatlarning aniq mexanizmlari ko'rsatilmagan asosan qonunosti hujjatlari bilan tartibga soladigan normalar ham qo'llanilmoqdaki, amaliyotda bu huquqni qo'llashda turlicha talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Havolaki norma - u yoki bu qoidani qonun hujjatlaridagi boshqa moddalarga yoki ilgari qabul qilingan qonun hujjatlariga havola qilish yoxud normalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish, ya'ni agar normaning o'zida qoidalar belgilangan bo'lmasa, shu qoidalarni o'zida mujassam etgan boshqa normaga havola etish tushuniladi.

Qonun hujjatlarida havolaki normalar bir necha maqsadda foydalaniladi. Jumladan, normativ ko'rsatmalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish zarurati bo'lgan hollarda yoxud tartibga solingan munosabatni qayta takroran tartibga solishni oldini olish uchun qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, havolaki normalar kerak. Faqat qonun darajasida belgilanishi lozim bo'lgan qoidalarni qonunosti hujjatiga havola etmaslik darkor. Sababi, havolaki normalarning xavfli tarafi ham borki, u yoki bu masalani tartibga solishni boshqa mansabdor shaxsning ixtiyorida qoldirishdan kelib chiqadi.

Shuning uchun ham yuqorida ta'kid etganimizdek, milliy parlamentimiz so'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Qolaversa, qonun ijodkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha aniq istiqbolli rejalar mavjud. Xususan, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida 2030 yilga qadar to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning monitoringi va tartibga solish ta'sirini baholash hajmini oshirish, barcha uchun qulay, sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish maqsadida bir qator samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan [13].

2024 yil 19 fevralda Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-75-sonli qarori [14] bilan sohadagi bir qator masalalar o'z yechimini topmoqda.

Avvalo, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalaridagi qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, 2 ta kodeks va 21 ta qonundagi 41 ta havolaki normani amalga oshirish bo'yicha mas'ul ijrochilar va aniq muddatlar belgilangan.

Ikkinchidan, 2024 yil 1 martdan boshlab agar qonun loyihasida havolaki norma qo'llanilsa, uni amalga oshirishning aniq muddati va mas'ul ijrochi loyihaning o'zida majburiy tartibda belgilanadi. Ya'ni, endi umumiylik, mavhumlikdan aniqlikka o'tiladi.

Uchinchidan, qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan munosabatlarni qonun darajasiga ko'tarish imkoniyatini muhokama qilish shartligi belgilanib, bu haqda qonun loyihasining tushuntirish xatida bayon etiladi.

To'rtinchidan, qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga



erishilganligini aniqlash uchun qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o'tib, mas'ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari tomonidan uning tartibga solish ta'sirini baholash amaliyoti joriy etladi.

Beshinchidan, bilamizki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini [15] ishlab chiqish jarayonida loyihani tayyorlashdan oldin xalqning fikri olinib undan so'ng loyiha umumxalq muhokamasiga quyilgan edi. Mazkur to'plangan ijobiy tajribadan kelib chiqib, eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar endi xuddi shu tartib asosida ishlab chiqilishi belgilanmoqda. Bu orqali jamoatchilikning keng ishtiroki ta'minlanadi hamda hujjatning xalqchil bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, kelgusida ham bu boradagi faoliyatni yanada samarali tashkil etish, norma ijodkorligida xalqchilikni ta'minlashga qaratilgan ishlarni tizimli ravishda davom ettirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonun loyihalarini birinchi navbatda xalq manfaatidan kelib chiqqan holda tahlil qilib, ularni tanqidiy ko'rib chiqish borasidagi ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq

Zero, bu qabul qilinayotgan qonunlarning har jihatdan mukammal va bugungi kun talablariga mos bo'lishiga, olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirishga, pirovardida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga, aholining farovonligini oshirishga ko'maklashadi.

ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta’lim maktablarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug‘diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur monografiyada inklyuziv ta’limning o‘ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim jarayonida yo‘lga qo‘yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo‘llarini aniqlash ko‘zda tutildi. Shunisi borki, inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalar o‘rtasida, balki sog‘lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ham fanlarni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o‘quvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba’zan sog‘lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o‘z tengdoshlariga qo‘shilmay, tortinishi, o‘z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o‘stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta’lim amaliyoti va ta’lim xizmatlarini tashkillashtirishda o‘zgarishlar qilishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas’uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi. Inklyuziv ta’lim - barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir. Inklyuziv ta’limni oiladan maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv



muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;

- turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar. Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat⁴. Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;



- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologikpedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash. Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta'limining dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayoni inklyuziv ta'lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o'zlariga xos bo'lgan ta'limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirishlari va faqatgina o'zlari kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo'lishlari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar bir turda bo'lishi ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish metodlarini ularga moslashtirish, biroq aloqa o'rnatish sohasida muammolarga ega bo'lgan o'quvchilarni ular bilan uyg'unlashtirish ularning ijtimoiy rivojlanishlariga sharoit yaratmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o'quvchilar bilan bir xildagi xatti-harakatlarni amalga oshirish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni guruhlar yoki sinflarga izchil tarzda asta-sekin uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda o'quvchilarning sinfdoshlari yoki guruhdoshlari bilan aloqa o'rnatish olishlari va o'qish layoqatlarini hisobga olishlari talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar taraqqiyotining ko'lami shu qadar kattaki, ular uchun bir xildagi ta'lim jarayonini tashkil etish imkonsizdir. Bunday sharoitda ko'plab o'quvchilar ta'lim jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar tarkibining turli-tumanligi shuni ko'rsatadiki, ularga ta'lim berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limining keng ko'lamliligi va serqirraliligini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me'yorda rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonida hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini



hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o'z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga turli variantlarda ta'lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan: O'quvchining bilimlarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta'lim beriladi. Bunday ta'limning mazmuni umumiy o'rta ta'limning mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o'qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Mazkur yo'nalishda o'quvchilar o'z tengdoshlari orasida bo'lib, ular uchun cheklangan ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog'liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazarda tutiladi. O'quv jarayoni va sinf xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta'lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlari esa cho'zilgan bo'ladi. Jumladan, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim jarayoni o'n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun boshlang'ich ta'limning maqbul varianti sifatida umumiy o'rta ta'lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o'quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o'quvchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti-harakatlaridagi muammolar tengdoshlariniki bilan solishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog'lom sinfdoshlarinikiga ko'ra boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv jarayonida bunday o'quvchilar sinfdoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o'zib ketishi mumkin. Bu o'z navbatida o'quv dasturlariga o'zgatirishlar kiritish, o'quvchilarga korreksion yordam ko'rsatish, intellektual yuklamalarni ko'paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi. Imkoniyati cheklanmagan bolalar uchun inklyuziv ta'lim berish rivojlanishida muammolar mavjud bo'lgan o'quvchilarni o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'qitishni nazarda tutar ekan, mazkur yo'nalish aksariyat bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy va aqliy rivojlanishda orqada qolgan o'quvchilar uchun maxsus sinflar ochish imkonini beradi. Bunday o'quvchilarga muvaffaqiyatli ta'lim berish uchun mohirlik bilan tashkil etilgan maxsus pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ularni integrallashtirilgan sinflardagi o'quvchilar sonini keskin kamaytirish talab etiladi. Inklyuziv ta'limning ushbu varianti individual tarzdagi yakuniy natijalarni qo'lga kiritishni taqozo qiladi. Shuning uchun inklyuziv ta'limning sifatini aniqlash maqsadida muayyan parametrlar va ko'rsatkichlarni (indikatorlar) belgilab olish lozim. Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga



oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lim olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o'qituvchilarni ta'limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda sog'lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta'lim klasteri sharoitida barcha bolaga birdek sifatli ta'limni tashkil etishda o'qituvchining roli va mavqei, ota-onalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan.

“Zamonaviy maktab”larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha “Zamonaviy maktab”ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda ta'lim muassasalari har tomonlama yordam ko'rsatishi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizomda belgilab berilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zamon talabidir. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yordamga muhtoj bolalar davlatimizning teng huquqli a'zolari. Ularni uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha muassasalarda hamma qatori ta'lim olishi va tarbiyalanishini ta'minlash bizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o'zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to'liq va teng huquqli ishtiroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammolarini hal etishda o'ta muhim ahamiyatga ega. “Nogiron” tushunchasini muomaladan chiqarish va uning, eng avvalo, inson ekanligini hisobga olgan holda umume'tirof etilgan “nogironligi bo'lgan shaxs” atamasini kiritish va BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tashkil etilishi ham quvonarlidir. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari» haqidagi Qonuni har bir bola o'z oilasida tarbiyalanish huquqini kafolatlaydi, bola huquqlarini himoya qilish



bo'yicha davlat siyosatini belgilaydi, davlat organlarini bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha kafolatlarini belgilaydi. BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishlilik aniqlandi. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975 yilda "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muhofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni qabul qildi. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi halqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko'ngilli tarzda zimmalariga "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" kompleks va ko'p qirrali xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni qamrab olgan yagona Konvensiyadir.

Nuqsonli bolalarning o'quv imkoniyatlari asosiy o'rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta'limga jalb qilish imkoniyatini topmoq kerak. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha xuquqiy me'yoriy hujjatlar, xalqaro forum Konferensiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar hamjamiyatning to'laqonli va tenghuquqli a'zosi ekanligi e'tirof etilib, ular ta'limida alohida yangicha yondashuv maydongan keldi. Ushbu ta'lim shakllari inklyuziv va integratsion ta'lim deb ataldi. "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyaning mazmunidan shu narsani tushunish mumkinki, nogiron fuqarolar uchun jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish kafolatlanadi. Ammo mazkur deklaratsiyada nogiron bolalar, ularning ta'lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari batafsil yoritilganligi aniqlandi. Bu xususda Suleymenova R.A. fikricha "Agarda nogiron bolalarning uz jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa ularning imkoniyatlari keskin kamayadi" degan fikrni bildirdi. "Ta'limning uzluksizligi, yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Ta'lim rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun tub ahamiyatga ega" deb ta'kidlaydi. Imkoniyati cheklangan har bir bolaning o'z oilasida yashab tarbiyalanish huquqini ta'minlash maqsadida ta'limning ustuvor shakli sifatida umumiy, ya'ni inklyuziv ta'lim belgilangan. Bu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga oilada yashash, ota-onalardan bahramand bo'lib o'z mahallasida tengqurlari orasida umumiy ta'lim olish imkonini beradi. «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, «barcha huquqlar – barcha bolalarga» tamoyili e'tirof etiladi. Bu borada «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»da maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim tarbiyasi xususida: «Nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi va shaxs



sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta'limga, ta'lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim», deb ta'kidlangan. Bu qonunga binoan, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi, milliy e'tiqod va madaniyatga hamohang bo'lib o'sishi, uning boyliklaridan, go'zalligidan bahra olib jamiyatning rivojiga hissa qo'shishlari katta ahamiyatga egadir. Alohida ehtiyojli bolalar barcha bolalar kabi, teng huquqli bo'lib ular bilan bir jamoada yashash va birgalikda ta'lim olish huquqiga egadirlar. Alohida ta'lim olish esa bu huquqni cheklaydi va o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Alohida ehtiyojli bolalar ularning cheklangan imkoniyatlari tufayli alohida o'qitilishi ularning ijtimoiylashuvini chegaralab, mustaqil hayotga tayyor bo'lishini qiyinlashtirishiga olib keladi. Birlashtirilgan, inklyuziv ta'lim – inson huquqlarining dolzarb muammosi bo'lib kelgan. Hali juda ko'p bolalar otaonalarining bola uchun qulay sharoiti mavjud, deb hisoblagan maxsus internatlarda o'qitishi tarafdori bo'lib kelmoqda. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironlar, o'zlarini inklyuziv ta'lim shartlarini boshidan kechirgan deb ta'riflab, alohida ta'limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar. Chunki “qulay, imtiyozli sharoitda, hamma narsa tayyor bo'lgan sharoitdan chiqgach, tashqariga moslashish, o'z o'rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi. Har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi. Shular nazarda tutilgan holda hozirgi kunda birlashtirilgan –inklyuziv davlat siyosati darajasida ko'rilmqda. Birlashtirilgan ta'limga o'tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:

- Ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosabatlarning o'zgarishi;
- Oilaning bunga tayyor bo'lishi;
- maxsus maktab ta'limida bolalarning o'qitilish vaqti qisqartirilib bolalar boshlang'ich bosqichda reabilitatsiya bo'lishini ta'minlovchi shartsharoitlar yaratilishi;

maxsus maktab ta'limi sohasi malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi, korreksiya va reabilitatsiya jarayonini sifatli va tezkor amalga oshirilishi uchun zarur jixozlar bilan ta'minlanishi;

- maxsus maktab ta'limi va oila hamkorligiga erishish, oilaning reabilitatsiya jarayonida faol bo'lishiga erishish (qo'shimcha uyda shug'ullanish, repititor, maxsus psixolog maslahati orqali). Umumta'lim maktablarni birgalikdagi–inklyuziv ta'limga tayyorlash:

- Maxsus infrastruktura yaratish;
- Maxsus mutaxassislar bilan ta'minlash;

- Ehtiyojlarga mos texnik va o'quv moslamalari bilan ta'minlash (maxsus lampalar, eshitish apparatlari, Brayl moslama komplekti, aravachalar uchun maxsus partalar va hk.). O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p.



2020 yil 13 oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko'rsatilgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

- pedagogika yo'nalishidagi OTMLar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;
- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani,

shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uyda ta'lim oladi. 2020 yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. Prezident qarori bilan 2025 yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichmabosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Development of professional skills and competencies of teachers
2. Turgunov, S. T., Daniyarov, B. K., Umaralieva, M. A., Shodmonova, S. S., Turgunova, S. M., & Tojiboeva, H. M. (2012). Development of professional skills and competencies of teachers. Tashkent" Sano-standart". Tashkent.–2012.
3. Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers
4. Umaralieva, M. (2017). Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers. Eastern European Scientific (ISSN 2199-7977). Journal.– Dusseldorf-Germany.
5. The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach



6. Turgunov, S., & Umaralieva, M. (2016). The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics*, (2), 119-125.

7. THE ROLE OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCY OF GENERAL SECONDARY PUPILS IN COLLABORATIVE PEDAGOGY

8. ABDUGAPPAROVNA, U. M. (2019). THE ROLE OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCY OF GENERAL SECONDARY PUPILS IN COLLABORATIVE PEDAGOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(5).

9. Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers Based on Innovative Approach

10. Umaraliyeva, M. A. (2017). Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers Based on Innovative Approach. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 65-68.

11. The Conceptual Direction of Prevention Informational Threats in Academic and Educational Publications

12. Mahmudov, S., & Umaralieva, M. The Conceptual Direction of Prevention Informational Threats in Academic and Educational Publications.

13. 7.Махмудов, С. Ю., & Умаралиева, М. А. (2016). Илмий-педагогик ва ўқув-услубий нашрлар орқали ўқитувчиларда информатсиявий таҳдидларга қарши курашишни ривожлантириш муаммолари. *Современное образование (Узбекистан)*, (7), 28-33



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA JISMONIY TARBIYA SPORTNING RIVOJLANISHI

Quronboyev Zafarbek Shavkat o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi, sohadagi qonunchilik hujjatlarining ahamiyati va malakali sportchilarni tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini jadal rivojlanish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, qonunlar, ommaviy sport, sog‘lom turmush tarzi, xalqaro standartlar, ilmiy tadqiqotlar, sog‘lom avlod.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilmoqda. Aytish mumkinki, mamlakatning barcha hududlarida ommaviy sportning rivojlantirilishi inson va oila hayotidagi roli va uning jismoniy va ma‘naviy sog‘lomlikning asosi hisoblanishi bilan ahamiyatlidir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sport siyosat darajasiga ko‘tarildi. O‘tgan vaqt davomida sohani rivojlantirishga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bir qator farmon va qarorlari va hukumatining tegishli hujjatlari qabul qilindi. Ular asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017 yilning 7-fevral kuni qabul qilingan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”⁴ qabul qilinib, unga ko‘ra aholini sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishlariga kenga imkoniyatlar yaratildi. Bundan tashqari jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlari yanada takomillashtirildi. Shuningdek, besh tashabbus hamda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida mahallar va chekka qishlarda ham sport obyektlari ishga tushirilib, yoshlar sportga faol jalb etildi. Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g‘olibi bo‘lgan



sportchilarni tuman va shaharlarga biriktirish amaliyoti joriy etilib, ayrim jahon chempionlari bo'lgan sportchilarining sport maktablari ochildi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarida mamlakat bo'ylab 184 ta yangi sport inshaotlari foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari 52,8 mln AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirilishi hisobiga Italiya, Germaniya, Avstraliya, Argentina, Ispaniya, Daniya kabi davlatlarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida 580 kishiga mo'ljallangan "Amirsoy" tog'-chang'i kurorti qurib, foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro darajadagi musobaqalarga mezbonlik qilish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilishi natijasida 2018 yilda ilk bor ot sporti bo'yicha jahon kubogi, og'ir atletika, erkin, yunon-rum va ayollar kurashi bo'yicha Osiyo chempionatlari, kurash bo'yicha Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovirini uchun I xalqaro turnir, golf bo'yicha "Uzbekistan Open" xalqaro turniri o'tkazildi.⁵

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi uchun hukumat tomonidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi natijasida sohaga yangicha yondashuv va sportchilarni Osiyo va jahon chempionatlariga tayyorlashning zamonaviy usullari kirib keldi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni⁶, shuningdek 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁷ qarorlari muhim qonunchilik hujjati sifatida e'tirof etish joiz.

"Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁸ qarori mahallalarda yoshlarni ommaviy sport musobaqalariga keng jalb etishni tizimli tashkil etish, ularni ommaviy sport bilan shug'ullanishlari borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qarorga muvofiq, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida yengil atletika, voleybol, stritbol, shaxmat, shashka, stol tennisi, futbol, mini futbol va vorkout sport turlari bo'yicha mahallalarda istiqomat qiluvchi turli yosh toifasidagi yoshlar o'rtasida yiliga ikki mavsumda sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus va Farg'ona filiallari tashkil etilib, ularda hozirgi kunda sport turlari hamda adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosliklari bo'yicha trenerlar yetishib chiqmoqda. 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra sport turlari hamda adaptiv jismoniy tarbiya va sport

Июнь 2025, 2-кисм

⁵ O'zbekistonda 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi natijalari, Factbook: byulleten. T.: Baktria press, 2021. – B. 117.

⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018-y., 06/18/5368/0851-son, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son.

⁷ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018-y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son.

⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.04.2022-y., 07/22/201/0289-son.



ixtisosliklari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash 2018-yilga nisbatan 26 foizga oshgan.⁹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi"¹⁰ ning amaliyotga joriy etilishi aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olishni ta'minlaydigan innovatsion shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil etish, shuningdek, ilg'or jahon tajribasi asosida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishni ilmiy-metodik ta'minlashni takomillashtirish borasida muhim qadam bo'ldi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda nafaqat ommaviy sportni rivojlantirish, balki sohada ilmiy tadqiqot ishlarni jadallashtirish, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va shu orqali sportchilarni musobaqalarga maqsadli tayyorlashga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Natijada, mazkur sohalarning ilg'or tendensiyalarini hisobga olgan holda bir qator yangi ixtisosliklar shakllantirilib, kadrlar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida tadqiqotchilar tomonidan sohani ilmiy asosda rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-414-son qarori¹¹ bilan jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg'or xorijiy sport-ta'lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilab berildi. Jumladan, sportda yuqori yutuqlarga erishgan va iqtidorli sportchilarni munosib taqdirlash uchun jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlarida 2023-yil 1-yanvardan boshlab Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasi joriy qilindi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda mustaqillik yillaridagi jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi, sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida sohaning barcha tarmoqlari bir xil darajada taraqqiy etmoqda. Buning isbotini sportchilarimizning 2016-yilda Rio de-Janeyrada, 2021-yilda Tokioda bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida rekord natijalarni qo'lga kiritganida ko'rish mumkin.

Iqtidorli sportchilarni professional ta'lim bilan qamrab olish, ularning iqtidorini to'la namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi maqsadli dasturlar sohadagi istiqbolli muvaffaqiyatlarga zamin yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
2. O‘zbekistonda 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi natijalari, Factbook: byulleten. T.: Baktria press, 2021. – B. 117.
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018-y., 06/18/5368/0851-son, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son.
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018-y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son.
5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.04.2022-y., 07/22/201/0289-son.
6. Ikramov A. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi “Hukumat soati”dagi hisoboti. T.: 2022-yil 21-sentabr.
7. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019-y., 09/19/118/2612-son.
8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022-y., 07/22/414/0996-son.



YOSH BADMINTONCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbanova Ilmira Alisher qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh badmintonchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodlariga oid ilmiy asoslangan yondashuvlar tahlil qilingan. Badmintonchilarning harakat texnikasini shakllantirish, ularning yosh xususiyatlariga mos metodik uslublarni tanlash masalasi muhokama etiladi.

Kalit soʻzlar: badminton, texnik tayyorgarlik, sportchilar, yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sport turlari ichida badminton oʻzining dinamikasi, texnik murakkabligi va koordinatsion harakatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, bolalar va oʻsmirlar sport maktablarida ushbu sport turiga qiziqish ortib bormoqda.

Badminton – jahon boʻylab keng tarqalgan va ommalashgan sport turlaridan biridir. Ushbu sport turi yuqori tezlik, harakatlilik va strategik fikrlashni talab qiladi. Yosh badmintonchilarni tayyorlash jarayonida texnik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Sportchilarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va sport maktablarining faoliyatini samarali tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ–4881-sonli qarorida yosh sportchilarni ilmiy asosda tayyorlash, ularning yoshi va qobiliyatiga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu esa texnik tayyorgarlikni takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Yosh sportchilar uchun texnik tayyorgarlik – bu faqat zarba yoki pozitsiyalarni takrorlash emas, balki jismoniy qobiliyatlar, muvozanat, tezkor qaror qabul qilish va toʻgʻri harakatlar kombinatsiyasini shakllantirishdir. Shu bois, metodik yondashuvlar chuqur tahlil qilinib, yosh badmintonchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi lozim.

Yosh badmintonchilar uchun texnik tayyorgarlik faqat zarbani oʻrganish bilan cheklanmaydi, balki harakat avtomatlashishini shakllantirish, aniqlik, tezlik va harakat davomiyligini uygʻunlashtirishga ham qaratilishi lozim. Har qanday sport harakati, jumladan badmintondagi texnik elementlar – zarba, joylashish, toʻpni kutib olish, harakatlanish yoʻnalishlari – koʻp marta takrorlash orqali avtomatlashtiriladi.

Germaniyalik olim H. Meinel shunday xulosa bergan: “Yosh sportchilar uchun qisqa, intensiv yuklamali mashqlar ularning fiziologik imkoniyatlariga mos keladi va harakatlar sifatini oshiradi” degan edi. Toʻpni oʻyinga kiritish, zarba va oʻyin pozitsiyalarida toʻgʻri joylashish badminton texnikasining asosi hisoblanadi. Bu elementlarni shakllantirish uchun:

- Har kuni kamida 50–100 marta toʻpni oʻyinga kiritishni takrorlash;
- Juftlik bilan zarbalarini muqobil bajarish;



- O'yin holatidagi joylashishni to'p uchish yo'nalishiga qarab mashq qilish;
- Harakatlar oralig'ida qisqa muddatli dam olish (10–15 soniya) orqali ko'proq takrorlash imkonini yaratish lozim.

Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari asosida shuni aytish mumkinki, texnik tayyorgarlik samaradorligi murabbiy tomonidan bolalarning individual xususiyatlariga moslab tashkil etilgan mashg'ulotlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, quyidagi **asosiy metodik yondashuvlar** tavsiya etiladi:

- Mashqlar mazmuni va yuklamalari yoshga mos bo'lishi;
- Ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish: dastlab oddiy, keyin murakkab kombinatsiyalar;
- O'yinli mashg'ulotlar orqali texnik elementlarni mustahkamlash;
- Har bir sportchining psixologik holatini hisobga olgan holda individual yondashuv.

Badminton o'yinida muvaffaqiyatga erishish uchun texnik tayyorgarlik muhim rol o'ynaydi. O'yinchilarning zarba berish, qabul qilish, harakat qilish va strategik qaror qabul qilish ko'nikmalari ularning natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Yosh badmintonchilar uchun to'g'ri texnik ko'nikmalarni shakllantirish, ularning o'yin sifatini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Texnik tayyorgarlikni takomillashtirish usullari

1. Asosiy texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish. Yosh badmintonchilar uchun asosiy zarba turlari va ularni bajarish texnikalari o'rganilishi kerak. Har bir zarba uchun to'g'ri pozitsiya va harakatlar ko'rsatib berilishi muhimdir.

2. Takroriy mashg'ulotlar. Texnik ko'nikmalarni mustahkamlash uchun muntazam takroriy mashg'ulotlar o'tkazilishi zarur. Bu jarayonda o'yinchilar har bir zarbani takrorlash orqali o'z mahoratlarini oshiradilar.

3. Videotahlil. Yosh badmintonchilarning o'yinlarini videoga olish va keyinchalik tahlil qilish orqali ularning xatolarini aniqlash mumkin. Bu usul o'z-o'zini baholash va texnik ko'nikmalarni takomillashtirishda samarali hisoblanadi.

4. Muvofiqlashtirilgan mashg'ulotlar. O'yinchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi kerak. Bu harakatlarning tezligini, aniqligini va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

5. Psixologik tayyorgarlik. Badminton o'yinida psixologik tayyorgarlik ham muhim ahamiyatga ega. Yosh badmintonchilarga stressni boshqarish va o'zlariga ishonchni kuchaytirish bo'yicha treninglar o'tkazilishi lozim.

Yosh badmintonchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirish – bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, u muntazam mashg'ulotlar, takroriy amaliyotlar va psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Murabbiylar yosh o'yinchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, ularning mahoratini oshirishda yordam berishlari zarur. Texnik tayyorgarlikni yaxshilash orqali yosh badmintonchilar nafaqat o'z natijalarini yaxshilaydilar, balki sportga bo'lgan qiziqishlarini ham oshiradilar.

Xulosa. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, texnik tayyorgarlikni tizimli ravishda, yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil qilish orqali yosh badmintonchilarning sport ko'rsatkichlarini barqaror oshirish mumkin. Kelgusida bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni eksperimental-uslubiy asosda davom ettirish, texnik



mashqlarni raqamli texnologiyalar bilan boyitish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltayev Z.B., *Sportchilarni tayyorlash tizimida pedagogik yondashuvlar*, Toshkent: 2022
2. Karimov A. Sport pedagogikasi asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
3. Wang J. “Badminton Techniques for Young Players.” Asian Sports Science Journal, 2018.
4. Pedersen M. “Youth Badminton Coaching.” European Journal of Sports Training, 2016.
5. Anderson L. “Motor Learning Principles in Badminton.” Journal of Physical Education, 2019.



ESHKAK ESHISH BILAN SHUG'ULLANGAN SPORTCHILARNING SOMATOMETRIK XUSUSIYATLARI

Xujabekov Mirzaahmad Absamatovich

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada baydarkada va kanoeda eshkak eshish sport turi bilan shug'ullanadigan sportchilar somatometrik ko'rsatkichlarining xususiyatlarini o'rganish masalalari ko'rib chiqildi. Jismoniy mashqlar bajarilgan vaqtda sportchi organizimining barcha funksional tizimlarining maksimal kompensatsiyasi vaqtida qo'shimcha energiya iste'moli zarurligi ko'rsatilgan, bu esa sportchilar tanasining zahiraviy imkoniyatlarini pasayishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, sportchi talabalar, yosh guruhlari, jismoniy faollik, eshkak eshish.

Sportchilar organizimini jismoniy yuklamalarga moslashtirish muammolarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, shuning uchun jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanganlar organizimida sport mashg'ulotlari ta'sirida organizmning funksional imkoniyatlarining ortib borishi, mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari va samaradorligi oshishi aniqlangan, natijada yurak-qon tomir tizimi va nafas olish tizimining ishlashi kuchayadi [2, 3].

Adabiyotlardagi ma'lumotlarni o'rganib shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda yosh sportchilar o'rtasida yuqori sport ko'rsatkichlari ortib bormoqda [3]. Kelajakda bu uzoq muddatli sport bilan shug'ullanuvchilarning organizimidagi o'zgarishlarning takomillashtirilishi natijasida yurak-qon tomir tizimidagi o'zgarishlarga olib keladi [1, 5].

Jismoniy rivojlanish holati sportchilarning yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlashda yetakchi rollardan biri bo'lib qoladi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va sportchilarning jismoniy zo'riqlashlari ta'sirida butun organizmning funksional xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik ayniqsa diqqatga sazovordir [4].

Raqobatbardosh faoliyat sharoitida tananing barcha funksional tizimlarini maksimal darajada qoplash paytida qo'shimcha energiya xarajatlari talab qilinadi, bu esa sportchilar tanasining zaxira imkoniyatlarini pasayishiga olib keladi [3]. Natijada, bu musobaqalarga tayyorgarlik bosqichida va raqobat davrida jismoniy faoliyatning yetarli darajada tanlanmaganligi bilan yurak-qon tomir tizimi patologiyasining sababi bo'ladi [1, 6].

Biz tadqiqotlarimizni Suv sport turlar bo'yicha Respublika oliy sport mahorat maktabining, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi Chirchiq daryosi (Charvog' suv ombori) hamda Toshkent viloyati, O'rtachirchiq tumanidagi, Tuyabo'g'iz suv omborida (Toshkent dengizi) jismoniy mashqg'lotlar olib borayotgan SPORTNING ESHKAK ESHISH TURLARI bo'yicha IXTISOSLASHTIRILGAN olimpiya zahirolari Respublika bolalar o'smirlar sport maktabining eshkak eshuvchi sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilar bazasida o'tkazildi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz Toshkent viloyati sharoitida eshkak eshish – kanoeda eshkak eshish va baydarkada eshkak eshish bilan shug'ullanayotgan 27 nafar sportchi (yoshlar) o'rtasida so'rov




o'tkazdik. Subyektlarning yoshi 17 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan.

O'rganilayotgan ma'lumotlarni sportchilarning funktsional xususiyatlarini o'rganishda an'anaviy usullar to'plami yordamida amalga oshirildi. Somatometrik hisob-kitoblar usuli tananing umumiy o'lchamlarini aniqlash uchun ishlatilgan - balandlik-vazn ko'rsatkichlari, ko'krak qafasi). Balandlik tik turgan holatda tibbiy stadiometr yordamida 0,5 smaniqlikda o'lchandi. Tana vazni 50 g aniqlikdagi maxsus tibbiy tarozi bilan o'lchandi. Tikturgan holatda ko'krak qafasi aylanasi maksimal nafas bilan, to'liq o'lchandi, nafas olish va tinch nafas olish (o'lchovlar 1 mm aniqlikdagi plastic lenta bilan amalga oshirildi).


Ma'lumki, inson organizmida uzluksiz davom etayotgan metabolism va energiya jarayonlari uning jismoniy rivojlanishining xususiyatlarini belgilaydi. Hayotning turli yosh davrlarida vazn, bo'y, tana atrofi o'zgarishi tezligi sezilarli darajada farq qiladi.

Eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy rivojlanishining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, 19-20 yoshda kanoeda eshkak eshish bilan shug'ullanadigan o'quvchi-sportchilar tanasining o'sishi 17-18 yoshli o'g'il bolalarnikidan past bo'ladi (1-rasm). Baydarka sporti bilan shug'ullanuvchi eshkak eshuvchi sportchilarning tana bo'yi mos ravishda ikki yosh guruhida $178 \pm 2,47$ dan $180 \pm 2,56$ smgacha.




1-rasm. Eshkak eshish sportchilarida tana o'sishi ko'rsatkichlari (n=27)

Barcha tekshirilganlarning tana vazni ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi shuni ko'rsatdiki, 17-18 yosh guruhida tana vazni $69 \pm 3,15$ - $70 \pm 1,88$ kg, 19-20 yosh guruhida esa kengroq o'zgaruvchanlik va $63 \pm 1,53$ dan $78 \pm 1,54$ kg gacha. (2-rasm).



2-rasm. Eshkak eshuvchi sportchilarning tana vazni ko'rsatkichlari (n= 27)

Eshkak eshish sportchilarida ko'krak qafasi hajmi ko'rsatkichlarining (THV) qiyosiy tahlili barcha tekshirilgan yoshlarda ko'krak qafasi hajmining yoshga bog'liq o'sishi borligini ko'rsatdi (3-rasm).



3-rasm. Sportchilarda ko'krak qafasi atrofi ko'rsatkichlari - eshkak eshishchilar, sm (n=27)

So'ralgan eshkak eshishchilar o'rtasida ko'krak qafasi aylanasi indeksi (THC) dagi farqlarni hisobga olganholda, 17-18 yoshda nafas olayotganda TC ko'rsatkichlari $99,82 \pm 1,89$ sm, nafas chiqarishda esa ular aniqlandi. $91 \pm 2,56$ sm nitashkil etdi. 19-20 yosh guruhida OGK qiymatlaridagi farq 1,8 dan 5,4 sm gacha (nafas olish va chiqarish vaqtida mos ravishda). Tahlil shuni ko'rsatdiki, barcha tekshirilgan yoshlarda ko'krak qafasi hajmi uchun olingan qiymatlar ko'plab adabiy ma'lumotlarga to'liq mos keladi [1, 5, 7].

Shunday qilib, tayyorgarlikning fiziologik, anatomik va boshqa ko'plab jihatlari kanoechining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Kanoe va baydarkada eshkak eshuvchilarning fiziologik holatini hisobga olish yuqori toifali



sportchini tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. Shu munosabat bilan, raqobatbardosh natijani aniqlaydigan ma'lum fiziologik ko'rsatkichlarni kuzatishning ishonchli va ishonchli usullari birinchi o'ringa chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андрющенко Л.Б. Мониторинг физического развития студенческой молодежи Волгоградской области // Вестник ВолГМУ. 2005.- № 2.- С.31-33.
2. Доронцев А.В., Петина Э.Ш., Морозова О.В., Козлятников О.А. Анализ общей физической подготовки спортсменов по академической гребле Астраханской области // II международная научно практическая конференция «Развитие образования педагогики и психологии в современном мире». – Воронеж, 2015. – С. 75-77.
3. Двоеносов, В.Г. Возрастные особенности адаптации спортсменов-гребцов к напряженным физическим нагрузкам: автореф. ... дис. канд. биолог. наук. – Москва, 1997. – 20 с.
4. Кеткин А.Т., Варламова Н.Г., Евдокимов В.Г. Антропометрические показатели и физическая работоспособность. Физиология человека. 1984.- Т.10.- № 1.- С. 112-116.
5. Опалев, М.А. Критерии отбора и спортивной ориентации юных гребцов-каноистов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2004. – 20 с.
6. Светличкина А.А., Козлятников О.А. Планирование интенсивности физических нагрузок на основании исследований электрокардиографии у высококвалифицированных спортсменов и студентов Астраханского ГМУ // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 3 (133). – С. 214-217.
7. Погоньшева И.А., Погоньшев Д.А. Влияние физических нагрузок на функционирование состояния аппарата внешнего дыхания в условиях Севера // Экология, образование, наука, медицина: Матер. Всероссийской научно-практической конференции. Пенза, 2005.- С. 133-134.



**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

**HEMIS TIZIMI KOMPONENTALARI O'RTASIDAGI BOG'LANISHNI
VIZUALLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI**

Qodirov Bobur Qodirovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

bqodirovv@icloud.com

ANNOTATSIYA: Mazkur ilmiy ishda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida keng joriy etilgan va ta'lim jarayonining raqamlashtirilgan boshqaruvi uchun asosiy platformalardan biri hisoblangan HEMIS (Higher Education Management Information System) axborot tizimining ichki tuzilmasi hamda uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida HEMIS tizimi modullari o'rtasida amalga oshiriladigan axborot almashinuv jarayonlari DFD (Data Flow Diagram) modeli vositasida grafik tarzda modellashtirilish uchun tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: HEMIS, DFD modeli, axborot oqimi, komponenta, axborot tizimi, modellashtirish, vizualizatsiya.

HEMIS tizimi – bu O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish, nazorat qilish va boshqaruv funksiyalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan axborot tizimidir. U orqali talabalar, o'qituvchilar, fakultet dekanatlari, o'quv bo'limlari va boshqa tuzilmalar o'zaro elektron shaklda ma'lumot almashadi, hisobotlar shakllanadi, rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

A.A.Abdullayev, Sh.L.Saitov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida Hemis axborot tizimidan foydalanishda qator qulayliklar yaratishga imkon beruvchi mobil ilovaning yaratilishiga bo'lgan talab, ehtiyojlarning ortib borish darajasi haqida so'z yuritiladi [1]. Shuningdek, HEMIS axborot tizimi mobil ilovasining imkoniyatlari hamda raqamli xizmatlari to'g'risida mulohazali fikrlar olib borilgan.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'rganishning ahamiyati, hozirgi kunda olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar ham keng rivojlantirilmoqda [2,4]. Universitetlarni raqamlashtirish, jumladan: undagi qog'oz ko'rinishidagi hisobotlar, professor-o'qituvchilar tomonidan beriladigan va talabalar tomonidan bajariladigan topshiriqlar ustida yangicha yondashuvlar amalga oshirilmoqda.

Sh.M.Ibragimovning ilmiy tadqiqotlarida Hemis tizimi misolida onlayn ta'lim sifatini baholashning turli yondashuvlari va usullarini o'rganish muammosi ko'rib chiqilgan [3]. Ta'lim tizimida baholashning ma'nolari, kontseptsiyasi va maqsadli vazifalari tahlil qilingan. HEMIS kredit-modulli tizimda qo'llaniladigan virtual o'quv muhiti bo'lib, HEMIS tizimidagi bilimlarni nazorat qilishning turli usullarini ko'rib chiqadi va o'qitish samaradorligini oshirish uchun keyingi metodologiyalarni belgilaydi.

Raqamli transformatsiya sharoitida HEMIS tizimi o'quv jarayonining



shaffofligi, ma'lumotlarning tezkorligi va boshqaruv qarorlarining asoslanganligi uchun muhim vosita hisoblanadi. Masalan, dekaning yuklama rejalashtirishdagi qarori yoki rektorning statistik ma'lumotlarga asoslangan buyrug'i — barchasi HEMIS orqali shakllanadi.

Shunga qaramay, tizimning ichki arxitekturasini — ya'ni komponentalari o'rtasida qanday axborotlar harakatlanayotgani, qaysi modul qanday ma'lumotga bog'langanligi, qaysi jarayonlar bir-biriga qanchalik ta'sir qilayotgani — aniq va tushunarli ko'rinishda tasvirlanmagan.

Bu esa:

- Tizimni yangilash yoki kengaytirishda muammolarga olib keladi;
- Texnik xizmat ko'rsatishni murakkablashtiradi;
- Ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilar o'rtasida anglashilmovchilikka sabab bo'ladi;
- Axborot oqimlarida ortiqcha yoki takroriy jarayonlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Shu muammoni yechish uchun DFD (Data Flow Diagram) modeli qo'llanilishi tavsiya etiladi.

DFD modeli — tizimdagi axborotlar qayerdan kiradi, qayerga qayta ishlanadi, qayerga yo'naltiriladi, qaysi komponentalar bilan bog'liq ekanligini grafik va bosqichma-bosqich tarzda ifodalaydi. U yordamida:

- Tizim komponentalari o'rtasidagi axborot oqimlari aniq ko'rsatiladi;
- Har bir modulning funksional chegarasi belgilanadi;
- Funksional bog'liqlik darajasi baholanadi;
- Potensial nosozliklar, ortiqcha jarayonlar yoki takroriy ma'lumotlar aniqlanadi va bartaraf etiladi.

Shu tarzda DFD modeli HEMIS kabi murakkab axborot tizimini tahlil qilish, uni optimallashtirish va kelajakda modernizatsiya qilish uchun samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev Alisher Ilxamovich, Saitov Shukrullo Lutfullo O'G'Li, Pirmanov Oxunjon Baxridin O'G'LI, Sayidov Farux Asatulloevich, & Dexkonboyev Islomjon Tolibjon O'G'LI (2024). "OLIY TA'LIM JARAYONLARINI BOSHQARISH — HEMIS" AXBOROT TIZIMI MOBIL ILOVASINING IMKONIYATLARI. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3 (2-1), 73-76. doi: 10.5281/zenodo.10652848
2. Akramjon O'Ktamjonovich Mirzayev (2021). MAMLAKATIMIZ TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI DUNYODA O'QITISH VA O'RGANISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2 (12), 1046-1051.
3. Ибрагимов, Ш.М. (2024). ORGANIZATION OF ONLINE CONTROL IN THE CONDITIONS OF DISTANCE LEARNING IN THE HEMIS SYSTEM. Scientific journal of the Fergana State University. 29. 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a3.



4. Kadyrov, B. K. (2022). Perspectives of problems in the study of database science in the Credit-Module System and their solutions. *International Journal of Formal Education*, 2(1), 16-22.



АТРОФ-МУЎИТНИ МУЎОФАЗА ҚИЛИШДА ОҒ'ИР МЕТАЛЛАРНИНГ ТА'СИРИНИ ЮМШАТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi
FDU Ekologiya kafedrası o'qituvchisi

Og'ir metallar atrof-muhitni ifloslantiruvchi, tabiiy va antropogen faoliyat natijasida yig'ilib boruvchi va bir qancha muammolarni yuzaga keltiradigan moddalardir.

Hozirda o'gir metallarni atrof-muhitga salbiy ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, og'ir metallarning texnogen manbalari batafsil o'rganilgan (Bolshakov va boshq., 1993; Orlov va boshq., 2002, Vodyanitskiy, 2005, Gorbato, 1988; Pinskiy, 1997, D, Amore va boshq., 2005, D, Amore va boshq., 2005) [1].

Tuproqlarning og'ir metallar bilan ifloslanishining tabiiy va sun'iy manbalari mavjud bo'lib, tabiiy manbalari litogen og'ir metallar va metalloidlar bilan ifloslanish hisoblanadi. Tuproqlarni tabiiy ifloslanishini bir necha ko'rinishlarga ajratish mumkin:

Birinchidan, tuproqlarda og'ir elementlarni to'g'ridan-to'g'ri yig'ilib borishi. Masalan, Oltoydagı tuproqlar mishyak bilan boyitilgan, uning tarkibi mahalliy qora tuproqlarda 100-150 mg/kg ga yetadi (Матвеев, Авдонькин, 2007) [2].

Ikkinchidan, o'simliklar va hayvonlar uchun kimyoviy elementlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi xavfi mavjudligi. Masalan, Baykalortida stronsiy va bariy bilan boyitilgan hamda kaltsiy yetishmovchiligi bo'lgan hududda Kashina-Beka kasalligi keng tarqalgan.

Uchinchidan, tuproqlarda litogen og'ir elementlarni faollashi yuzaga kelishi mumkinligi. Bunday holat AQShning g'arbiy qismidagi tuproqlarda yuz bergan, Se-fosforit konlarida va ular bilan bog'langan uglerod-loyli slanets tarkibida Se miqdori 700 mg/kg ga yetadi (Иванов, 1996) [3]. AQSh tuproqlari uchun Selen (Se) Klarki 0,4 mg/kg ni tashkil qiladi.

Tuproqning xavfli og'ir elementlar bilan sun'iy ifloslanishining asosiy manbalari

1) statsionar manbalar va transport vositalaridan aeral kelib tushishi;
2) sanoat chiqindi suvlarining suv havzalariga kirib kelishi orqali gidrogen ifloslanish;

3) oqava suvlar qoldiqlari;

4) kul qoldiqlari, shlaklar, rudalar, loylar va boshqalar;

5) neft qazib olish joylariga neft va tuz eritmalarining to'kilishi bilan bog'liq.

Vaqt o'tishi bilan ifloslanishning ayrim turlari o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa, boshqalari esa, aksincha, tobora ko'proq xavf tug'dirmoqda. Ilgari asosiy e'tibor tuproqlarning aeral ifloslanishiga qaratilgan, so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda havo chiqindilari keskin kamaydi. Ammo og'ir metallar bilan tuproqlarning neft qazib olish bilan bog'liq ifloslanishi ortdi.

Og'ir metallar bilan atrof-muhitni ifloslanishini oldini olish maqsadida har yili dunyo miqyosida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday tadbirlardan



yana biri tanasida og'ir metallarni akkumulyatsiya qilish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy holda o'suvchi o'simliklarni tadqiq qilish hamda ulardan foydalanishni yo'lga qo'yishdir.

Tadqiqotlarga ko'ra, yovvoyi (tabiiy) holda o'suvchi o'simliklar orasida antropogen ifloslanish REM dan oshgan hududlarda og'ir metallarni to'plash xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar mavjud. Masalan, o'tloq bedasi (lot. *Trifolium pratense*), dorivor qoqio't (lot. лат. *Taraxacum*), oqso'xta (lot. *Dactylis glomerata* L.), oq sho'ra (lot. *Chenopodium album* L.), achchiq shuvoq (lot. *Artemisia absinthium*) Fe, Cr, Cu kabi og'ir metallarni akkumulyatsiya qilish xususiyatiga ega. Bunda alohida elementlarning kontsentratori bo'lgan o'simlik turlari katta ahamiyatga ega: achchiq shuvoq (lot. *Artemisia absinthium*)-temir, mis, xrom to'plash xususiyatiga ega; oqso'xta (lot. *Dactylis glomerata* L.) – temir, rux, mis, kobalt, xrom; oq sho'ra (lot. *Chenopodium album* L.)– nikel, marganets; dorivor qoqio't (lot. лат. *Taraxacum*) – rux; o'tloq bedasi (lot. *Trifolium pratense*) – rux, nikel, kobalt, temir, marganets, xrom.

O'simliklar eng ko'p to'playdigan og'ir metall temir elementi bo'lib, undan keyingi o'rinda kamayish tartibida: mis, xrom, rux, kobalt, marganets turadi. O'tloq bedasi, shuvoq va oqso'xta og'ir metallarni yuqori akkumulyatsiya qilish xususiyatiga ega, shuning uchun bu o'simliklar olimlar tomonidan tuproqni og'ir metallardan fitomelioratsiyali tozalash uchun tavsiya etiladi [4].

Kimyoviy korxonalar chiqindilari bilan atrof-muhitga kelib tushadigan zaharli organik moddalarni zararsizlantirish uchun turli mikroorganizmlar uzoq vaqtdan beri muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Biroq, ular tuproq va suvdan salomatlik uchun zararli bo'lgan og'ir metallarni – masalan, mishyak, kadmiy, mis, simob, selen, qo'rg'oshin, shuningdek stronsiy, seziy, uran va boshqa radionuklidlarning radioaktiv izotoplarini olib tashlashga qodir emaslar. Atrof-muhitdan olinadigan va to'qimalarida turli xil elementlarni to'playdigan yashil o'simliklar foydalanishni qulay taraflari mavjud. Masalan, ularni massasini yig'ish va yoqish qiyin emas, hosil bo'lgan kulni ko'mish yoki ikkilamchi xom ashyo sifatida ishlatish mumkin. Ushbu atrof – muhitni tozalash usuli fitoremediatsiya deb nomlangan-yunoncha "fiton" (o'simlik) va lotincha "remedium" (tiklash) dan [5]. Fitoremediatsiya o'z barglarida 5% gacha nikel, rux yoki misni quruq og'irlikda to'plashi mumkin bo'lgan og'ir metallarning giperakkumulyatori bo'lgan o'simliklari topilgandan keyingina atrof-muhitni tozalashning samarali va iqtisodiy jihatdan foydali usuliga aylandi - bu oddiy o'simliklardan o'n baravar ko'p degani.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, atrof muhitni og'ir metallar bilan ifloslanish oqibatlarini yumshatish, ularning tuproqda yig'ilib borishini oldini olish hamda ulardan tabiiy muhitni tozalash maqsadlari uchun uchun fitoremediatsiya usulidan foydalanish samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Og'ir metallarni yuqori akkumulyatsiya qilish xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklarni atroflicha o'rganish, ulardan keng miqyosda foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. Bunday o'simliklar atrof-muhitni og'ir metallardan tozalash bilan bir qatorda tuproqning kimyoviy va strukturaviy tuzilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ю. Н. Водяницкий, Д. В. Ладонин, А. Т. Савичев. Загрязнение почв тяжелыми металлами. Москва 2012.
2. Матвеев Ю.М., Авдоськин А.А. Подходы к нормированию уровня воздействия (нагрузки) мышьяка на почвенный покров Российской Федерации // Современные проблемы загрязнения почв. II Межд. конф. М.:2007. Т. 2. С. 118–122.
3. Иванов В.В. Экологическая геохимия элементов. М.: Недра–Экология, 1994–1997. Кн. 1–6.
4. <https://www.bashinkom.ru/news/eto-interesno-rasteniya-nakaplivayut-tyazhelye-metally>
5. В.Душенков, И.Раскин. Фиторемедиация: зеленая революция в экологии. Химия и жизнь - XXI век
6. Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi. (2023). SELITEB LANDSHAFTLARDA TUPROQLARNING IFLOSLANISHI VA CHIQINDILAR MUAMMOSI. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(4), 515–517. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/1851>
7. Tadjibayeva , L. (2024). BIOSFERADA OG'IR METALLAR MUAMMOSI VA ULARNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI. Наука и инновация, 2(6), 77–79.
8. Таджибаева, Л. А. (2023). ЗНАЧЕНИЕ "ЗЕЛеной ЗОНЫ" В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ, АНТРОПОГЕННЫХ ЛАНДШАФТОВ. Science and innovation in the education system, 2(9), 29-33.
9. Tadjibayeva , L. , Anvarova, M. , A'zamova, R. , & Valijonov , U. . (2024). FITOREMEDIATSIYA: ATROF-MUHITNI TOZALASHNING TABIIY USULI. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 3(15), 166–170. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/canrms/article/view/53578>
10. Tadjibayeva, L. (2023). SHAHAR HUDUDLARIDA ATROF-MUHIT IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA SALBIY TA'SIRI. Наука и инновация, 1(5), 67-70.
11. Isaqov V.Y., Tadjibayeva L.A. Seliteb landshaftlarda atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari. O'zbekiston zamini jurnali. №2/2023. -113-116 bet



ТАЪЛИМДА CHATGPT НИНГ АҲАМИЯТИ

Мангитова Марям Сайлаубаевна

Тошкент Кимё халқаро

университети доценти, ф-м.ф.н.

Email: kosbergenova.marina@gmail.com

Аннотация: ChatGPT - бу СИ(сунъий интеллект) воситаси бўлиб, унинг таълим учун потенциал оқибатлари ҳозирги кунда баҳс-мунозараларга сабаб бўлияди. ChatGPT нинг кучли ва заиф томонларини аниқлаш ва унинг таълим имкониятлари ва таҳдидларини ўрганиш учун SWOT таҳлили танланилган ва асосли хулосалар келтирилган.

Калит сўзлар: сунъий интеллект(СИ), ChatGPT, SWOT таҳлил методи.

Сунъий интеллектга асосланган кучли чатботлардан бири бу ChatGPT деб номланувчи "Чат ишлаб чиқарувчи олдиндан ўқитилган трансформатор". ChatGPT (инглизча Generative Pre-trained Transformer) – дунёдаги етакчи OpenAI компаниясининг эволюцион маҳсулоти ҳисобланиб, бу фойдаланувчилар томонидан берилган саволларга жавоб бериш орқали матн яратишга қодир бўлган чат-бот. ChatGPT-нинг таълимга жорий этилиши унинг таълимга потенциал оқибатлари ҳақида баҳс-мунозараларни келтириб чиқарди. Ушбу мақолада таълимда ChatGPT қўлланилиши бўйича мавжуд адабиётларни тўлиқ таҳлил қилиш мақсадида SWOT таҳлили танланилди. Маълумки SWOT таҳлили ва мавжуд адабиётлар асосида ChatGPT нинг таълим учун турли имкониятларини аниқлашга ёрдам берадиган кучли томонларини тўлиқ кўриб чиқиш мумкин. Шунингдек, у ChatGPT нинг заиф томонларини аниқ тушуниш имконини беради ва келажакда фойдаланувчилар дуч келиши мумкин бўлган таҳдидларни таъқидлайди. Бу ушбу таҳдидларни самарали бошқариш ва бартараф этиш учун мослаштирилган стратегияни ишлаб чиқиш имконини беради. ChatGPT нинг кучли томонларига ишонарли жавобларни яратиш учун мураккаб табиий тил моделидан фойдаланиш, ўз-ўзини яхшилаш қобилияти ва индивидуал таълим тизими ёндошуви ривожига ёрдамчи восита ва реал вақтда жавобларни тақдим этиш киради. Шундай қилиб, ChatGPT маълумотларга киришни ошириши, индивидуал ва мураккаб ўрганишни осонлаштириши ва ўқитишдаги иш юқини камайтириши ва шу билан асосий укув вазифалар вазифаларни самаралироқ қилиши мумкин. Заиф томонларига эса чуқур тушунишнинг етишмаслиги, жавоблар сифатини баҳолашда қийинчилик, тарафкашлик ва камситиш хавфи ва юқори даражадаги фикрлаш қобилиятларининг етишмаслиги киради. Таълимга таҳдидлар орасида контекстни тушунмаслик, маълумотлар яхлитлигига таҳдид, таълим муассалари томондан эътирозларнинг давом этиши, плагиатни демократлаштириш ва юқори даражадаги когнитив қобилиятларнинг пасайиши киради. [1-11]

ChatGPT ни таълимда қўллаш бўйича хулосалар ва тавсиялар



ChatGPT-нинг SWOT таҳлили шуни кўрсатдики, ушбу янги СИ технологияси таълим учун маълум қийинчиликлар билан турли хил потенциал иловалар юзага бирга келади. SWOT таҳлилининг натижаси "ChatGPT билан нима қилишимиз керак?" саволига жавоб олишга ёрдам беради. Бу муаммони чуқур ўйлаб кўриш ва ChatGPT-нинг таълим учун имкониятларидан фойдаланиш ва унинг таълимга таҳдидларини минималлаштириш зарур. Бунинг учун, ўқув дастурларини ўзгартиришимиз ва ўрганиш мақсадлари, ўқув вазифалари ва янги баҳолаш ёндашувларини киритишимиз керак. Буни ўқувчиларнинг ўзи ушбу янги технологияларни ишлатиб, натижасини тўғри баҳолашига эришиш ва улардан фойдаланиш қобилиятини ошириш учун оммавий ахборот воситалари ва рақамли саводхонлик каби саводхонликнинг муҳим шакллари киритиш орқали амалга ошириш мумкин.

Таълим СИга кўпроқ боғлиқ бўлиб борар экан, ижодкорлик ва танқидий фикрлаш қобилиятлари каби юқори даражадаги таълим натижаларини ривожлантиришга ҳам эътибор қаратиш зарур. Юқори даражадаги таълим натижаларига ўтиш билан бирга, ўқув вазифаларини лойиҳалашдаги ўзгариш ҳам жуда муҳим. ChatGPT ёрдамида барча талабалардан битта мавзу бўйича иншо ёзишни сўраш ўрнига, энди ўқитувчилар талабалардан турли мавзулар бўйича СИ томонидан яратилган иншоларни тезда баҳолаш ва мулоҳаза юритишларини сўрашлари мумкин, шу билан бирга уларнинг мулоҳазаларини тушунтириб, баҳоларини асослашлари мумкин. Бундан ташқари, ChatGPT-нинг индивидуал ўқув тажрибасини яратишдаги кучли томонлари ва юқори даражадаги таълим натижаларини рағбатлантириш учун мослашувчан таълимнинг аҳамияти, уни юқори даражадаги таълим натижаларини қўллаб-қувватлаш учун самарали ўқув вазифаларини ишлаб чиқишда кучли воситага айлантиради. Ўқитувчилар форматив баҳолашдан фойдаланишлари керак, бунда ўқув жараёнида ўз-ўзини баҳолаш, фикрлаш ҳисоботлари ва тенгдошларнинг фикр-мулоҳазалари каби ҳақиқий баҳолаш амалиётлари орқали назорат қилинади. Ҳақиқий баҳолаш олий таълимда фойдали эканлиги узоқ вақтдан бери исботланган ва энди талабаларни ChatGPT мос жавоб бера олмайдиган фаолиятга жалб қилиш орқали реал ҳаёт муаммоларини ҳал қилиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Xu, L. D., Lu, Y., & Li, L. (2021). Embedding blockchain technology into IoT for security: A survey. *IEEE Internet of Things Journal*, 8(13), 10452–10473.
2. Ouyang, F., Zheng, L., & Jiao, P. (2022). Artificial intelligence in online higher education: A systematic review of empirical research from 2011 to 2020. *Education and Information Technologies*, 27(6), 7893–7925
3. Caldarini, G., Jaf, S., & McGarry, K. (2022). A literature survey of recent advances in Chatbots. *Information*, 13(1), 41
4. Haque, M. U., Dharmadasa, I., Sworna, Z. T., Rajapakse, R. N., & Ahmad, H. (2022). "I think this is the most disruptive technology": Exploring sentiments of ChatGPT early adopters using Twitter data.



5. Qadir, J. (2022). Engineering education in the era of ChatGPT: Promise and pitfalls of generative AI for education
6. Rudolph, J., Tan, S., & Tan, S. (2023). ChatGPT: Bullshit spewer or the end of traditional assessments in higher education? *Journal of Applied Learning & Teaching*, 6(1)
7. Shen, Y., Heacock, L., Elias, J., Hentel, K. D., Reig, B., Shih, G., & Moy, L. (2023). ChatGPT and other large language models are double-edged wwords. *Radiology*
8. Deng, J., & Lin, Y. (2022). The benefits and challenges of ChatGPT: An overview. *Frontiers in Computing and Intelligent Systems*, 2(2), 81–83
9. Cascella, M., Montomoli, J., Bellini, V., & Bignami, E. (2023). Evaluating the feasibility of ChatGPT in healthcare: An analysis of multiple clinical and research scenarios. *Journal of Medical Systems*, 47 (1), 1–5
10. Lecler, A., Duron, L., & Soyer, P. (2023). Revolutionizing radiology with GPT-based models: Current applications, future possibilities, and limitations of ChatGPT. *Diagnostic and Interventional Imaging*
11. Tlili, A., Shehata, B., Adarkwah, M. A., Bozkurt, A., Hickey, D. T., Huang, R., & Agyemang, B. (2023). What if the devil is my guardian angel: ChatGPT as a case study of using chatbots in education. *Smart Learning Environments*, 10(1), 15



ERKAKLAR KO'YLAGI ASOS KONSTRUKSIYASINI QURISHNING ZAMONAVIY METODLARI TAHLILI

Sidikjanov Ja'far Sobir o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Dizayn kafedrası assistenti, PhD

jafar.sidikjanov@bk.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada erkaklar ko'ylagini loyihalashning asosiy xususiyatlari aniqlash hamda kiyim qomatga sifatli o'rnashuviga erishish maqsadida asos konstruksiyasini qurishning zamonaviy metodlari tahlili amalga oshirildi.*

***Kalit so'zlar:** tana o'lchovlari, proporsional, parametrik model, RtW, MtM*

Kiyim ishlab chiqarish sanoatida odatda ko'ylak tikish uchun konstruksiya qurishning uchta an'anaviy usuli qo'llaniladi:

1) chiziqli regressiya tenglamalari orqali barcha chizma nuqtalarini hisoblash uchun bir nechta tana o'lchovlaridan (PI) foydalanadigan proporsional usul;


2) chizma chizish uchun to'g'ridan-to'g'ri PI to'plamidan foydalanadigan qisqa o'lchash usuli;

3) yuqoridagi proporsional va to'g'ridan-to'g'ri o'lchash usullarini birlashtirilgan usul.

Ushbu uchta usulga asoslanib, chizmalarni avtomatik ravishda qurish uchun ba'zi yangi parametrik modellar ham taklif qilingan.

Keng ko'lamli aholini ro'yxatga olishdan kelib chiqqan holda, proporsional usul faqat bir nechta PI (masalan, Or3, Дтс) asosida boshqa segmentlarning kerakli konstruksiya chizmasi indekslarini hisoblaydigan regressiya hisoblash tenglamalari bilan integral asos chizmasini qurishga imkon beradi. Yaponiya va Xitoyda RtW (Ready to Wear – kiyishga tayyor, ya'ni ommaviy ishlab chiqarilgan) kiyimlari uchun bu uslubdan keng qo'llaniladi [1]. Ushbu usullarning afzalliklari va kamchiliklari aniq. Bir tomondan, u juda kam tana o'lchovlarini talab qiladi, bu ko'p vaqt va mehnatni tejaydi. Boshqa tomondan, Or3 va boshqa o'lchamlar (masalan, bo'yin o'mizining chuqurligi, bo'yin kengligi) o'rtasidagi korrelyatsiyalar joriy natijalar bilan tushuntirib bo'lmaydi; va usul konstruktordan ma'lum tajribani talab qiladi. Ushbu kamchiliklar yakuniy mahsulotning qomatga o'rnashuvining to'liq mos kelmasligiga olib keladi.

1-rasmda Liu va Dongxua universiteti (Shanxay, Xitoy)dan xitoycha uslublari va yapon bunka uslubining prototiplari ko'rsatilgan [2, 3]. Ikki prototip odatda o'xshash tarzda turli xil tafsilotlar bilan qurilgan. O'xshashliklar quyidagilardir: ishlatiladigan bir xil PI (Or3 va Дтс), konstruksiya qurishning umumiy mantiqiy jarayoni, ba'zi konstruksiya parametrlarini hisoblash (masalan, bel chizig'ining uzunligi, orqa uzunligi, old kengligi).




1-rasm – Erkaklar yelkali kiyimining asos chizmasini chizishning proporsional usuli: a – Yapon bunka usuli, b – Liuning Xitoy usuli, d–Dongxua universiteti usuli (birlik: sm, B bu yerda Or ni ifodalaydi)

To'g'ridan-to'g'ri o'lchash usulida konstruksiya parametrlarini bevosita standart yoki yakka tartibdagi qomatdan olingan PII asosida tenglamalarsiz ishlatiladi. U RtW va MtM kiyimlariga qo'llanilishi mumkin. Ushbu parametrlar odatda PII qiymatiga konstruktiv qo'shimchani qo'shish orqali hisoblanadi:

$$K\Pi = P\Pi + \Pi, \quad (1.1)$$

bu yerda: $K\Pi$ – konstruktiv parametr, Π – konstruktiv qo‘shimcha.

Ushbu usul ham afzallik va kamchiliklarga ega. Bu ko'p vaqt talab qiluvchi va murakkab tanani o'lchash jarayonini o'z ichiga oladi va PII ning yuqori aniqligini talab qiladi. Biroq, PII yaxshi o'lchangandan so'ng, konstruksiya kiyimning qomatga yaxshi o'rnaviga erishadi. 2-rasmda Jozef-Armstrong usuli [5] bo'yicha qomatdan o'lcham belgilarini olish va erkaklar ko'ylagining old va ort bo'lak asos chizmasini qurish sxemasi ko'rsatilgan.



2-rasm - Jozef-Armstrongning to'g'ridan-to'g'ri o'lchash usuli bo'yicha erkaklar ko'ylagini loyihalash sxemasi:


a – o'lcham belgilari, b – old va ort bo'lak konstruksiya chizmasi (birlik: dyuym)

2-rasmda keltirilganidek, ort va old bo'lak konturlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'krak, yelka va bo'yin uchun 14 PII va konstruktiv qo'shimchalar yordamida chiziqli tenglama ko'rinishida bosqichma-bosqich chizish mumkin.

Xuddi shunday, Kershov oltita PII ga asoslangan konstruksiya chizmasini taklif qilgan: Or3, AD (qo'l ostidagi chuqurlik = $B_{шт3} - B_{сг}$), Дтс, beldan bo'ksagacha chuqurlik ($B_T - B_B$), Шс, Ош (bo'yin aylanasi) [6]. Aldrichning ko'ylak asos chizmasi beshta PII ga asoslangan: Or3, AD, Дтс, Шс, Ош [7, 8]. Ushbu chizmalar proporsional usuldagi chizmaga qaraganda qomatga yaxshiroq o'rnavishiga erishishi mumkin. Biroq, kiyimning sifatli o'rnavishidagi nuqsonlar to'liq bartaraf etilmagan.

Kombinatsiyalangan usul, ikkala usulni - proporsional va qisqa o'lchovni - ikkala regressiya tenglamalarini va bir nechta qo'shimcha PII ni birgalikda ishlatishni o'z ichiga oladi. Miyoshi prototip chizmasi Шс va Дтс o'lchamlari hamda Or3 va Ош ga asoslangan regressiya tenglamalari yordamida konstruksiya qurishni taklif qilgan [2].

Ushbu uchta usulga asoslanib, ko'plab olimlar erkaklar ko'ylagining alohida chizmasini loyihalash uchun yangi parametrik modellarni taklif qilishgan [1, 9]. Parametrik modellarni qurish odatda bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: PII ni aniqlash, xarakteristik nuqtalarni va chizmaning Dekart koordinata tizimini aniqlash, regressiya tenglamalari yordamida koordinatalar bo'yicha asos chizmani tuzish. Masalan, Hongning tadqiqotlarida chiziqli munosabatlar va tenglamalar birinchi marta 26 ta keng qamrovli o'lcham belgilari va o'rindosh namunalarni statistik tahlil qilish orqali ishlab chiqilgan. Tanlangan tananing to'rtta o'lchamlari (Or3, Ош, Дс, Ритс3) o'rganilgandan so'ng, old va ort segmentlar uchun xarakterli nuqtalar va koordinata tizimlari aniqlangan (3-rasm). Yakuniy chizma PII dan hisoblangan koordinatalar bo'yicha tuzilishi mumkin (1-jadval) [10].



3-rasm - Dekart koordinatalari tizimida sorochnika old va ort asos chizmasi bazaviy nuqtalari

1-jadval

Old bo'lakdagi xarakterli nuqtalarni aniqlash uchun muhim koordinatalar

Nuqta	Koordinata	Nuqta	Koordinata
A1	$(0, -2D_c + O_{r3/6} + 27/2)$	A13	$(O_{r3/4} + 3, -D_c + O_{r3/6} + 19/2)$
A4	$(0, O_{r3/6} - O_{m/5} + 42/5)$	A16	$(O_{r3/6} + 4, 33O_{r3/800} + 19O_{m/500} + 13661/4000)$
A5	$(O_{m/5} + 1/10, O_{r3/6} + 19/2)$	A20	$(O_{r3/4}, -2D_c + O_{r3/6} + 37/2)$
A7	$(2O_{m/15} + 1/15, O_{r3/6} - 2N_{G/15} + 263/30)$	A21	$(O_{r3/6} + 8/3, -2D_c + O_{r3/6} + 27/2)$
A9	$(O_{r3/6} + 13/2, 31O_{r3/300} + 19O_{m/250} + 1767/250)$	A31	$(2O_{r3/9} + 32/9, -2D_c + O_{r3/6} + 101/6)$
A10	$(O_{r3/4} + 4, 0)$		

3-rasm va 1-jadvalda ko'rsatilgan bunday parametrik model asosida individual chizma alohida o'lcham belgilarni kiritish orqali avtomatik ravishda qurilishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar bazaviy o'lcham belgilarning turli to'plamlarini kiritish orqali erkaklar ko'ylagi uchun shunga o'xshash parametrik modellarni taklif qilgan.

Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, erkaklar ko'ylagini loyihalash bo'yicha bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilgan hamda bir qator ijobiy



natijalarga erishilgan, lekin kiyim qomatga oʻrnashuvi borasida konstruksiya jarayonlarini takomillashtirish hamda avtomatik loyihalash imkonini beruvchi usullarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Yan Jiaqi. Development of e-bespoke men's shirt virtual design with predictable fit. PhD Dissertation of Ivanovo State Polytechnic University, 2021 pp. 52-55
2. Miyoshi, M. Costumes: Theoretical papers / M. Miyoshi // Beijing: China Textile & Apparel Press, 2006, -340p.
3. Zhang, W.B. Chinese Basic Block-Structure Designing Principle and Technical of Donghua Basic Block / W.B. Zhang, W.Y. Zhang // Journal of Donghua University, Natural Science, 2002,28(3), pp.45-50.
4. Liu, R.P. Pattern making theory & technology / R.P. Liu // Beijing, China Textile & Apparel Press, 2005, -227p.
5. Helen Joseph-Armstrong. Patternmaking for Fashion Design. Pearson Education Limited 2014
6. Gareth Kershaw. Patternmaking for menswear. Laurence King Publishing 2013
7. Winifred Aldrich. Metric Pattern Cutting for Menswear. Fifth edition, John Wiley and Sons Ltd, 2011 pp. 193-205
8. Winifred Aldrich. Metric Pattern Cutting. Fourth edition, Blackwell Publishing Ltd, 2004 pp. 134-135
9. Zhang, L.L. Parametric flat pattern design for clothing based on matlab / L.L. Zhang, G.P. Zhang // Journal of Textile Research, 2019, 40 (a), pp.130 - 135.
10. J. Q. Yan, V. E. Kuzmichev. Virtual technology of Made-to-Measure Men Shirt. 18th World Textile Conference (AUTEX 2018) IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering, pp. 1-6



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

CONSERVATIVE TREATMENT OF UNILATERAL VOCAL FOLD
PARALYSIS AFTER THYROIDECTOMY

Khaydarova Gavkhar Saidahmatovna

MD, Professor

haydarovadoc@mail.ru

Karimova Muborakkhon Dilmurod qizi

Master's Student

mubosha5373@gmail.com

Tashkent Medical Academy

Abstract: Unilateral vocal fold paralysis (UVFP) is a potential complication following thyroidectomy, often resulting in hoarseness, breathy voice, and impaired phonation. Conservative treatment is frequently the first-line approach in managing this condition, aiming to improve voice quality and restore laryngeal function without surgical intervention. This article reviews conservative management strategies for UVFP, including voice therapy, pharmacological agents, and observation. Emphasis is placed on the role of early referral to speech-language pathologists and individualized treatment plans. Clinical outcomes, prognostic factors, and indications for escalation to surgical management are also discussed. Conservative treatment can lead to significant functional recovery in many patients, particularly within the first 6 to 12 months postoperatively.

Key words: unilateral vocal fold paralysis, thyroidectomy, conservative treatment, voice therapy, recurrent laryngeal nerve injury, laryngeal rehabilitation, speech therapy, vocal coed paralysis.

Introduction: Unilateral vocal fold paralysis is a common complication following thyroidectomy, primarily caused by injury to the recurrent laryngeal nerve. This condition leads to significant voice disorders, breathing difficulties, and decreased quality of life[5]. Conservative treatment is a crucial part of patient management, especially within the first 6–12 months after surgery, when spontaneous nerve regeneration is possible. Timely and properly selected therapeutic interventions can help restore vocal function and prevent the need for surgical correction[3].

The Purpose of the Study: The aim of this study is to evaluate the effectiveness of conservative treatment methods in restoring voice function in patients with unilateral vocal fold paralysis following thyroidectomy.

Materials and Research Methods: The study included 50 patients diagnosed with unilateral vocal fold paralysis after thyroidectomy. All patients underwent a comprehensive conservative treatment program, which included:

1. Phonopedic rehabilitation (voice exercises, breathing exercises using the Strelnikova method, Bazylevich technique).



2. Pharmacotherapy with neuroprotectors (B vitamins, α -lipoic acid), anti-inflammatory drugs, and antioxidants[2].
3. Physiotherapy, including electrical stimulation of laryngeal muscles, magnetotherapy, and laser therapy[3].
4. Speech therapy sessions focused on restoring phonation and developing compensatory voice mechanisms[1].

Patients were monitored over 12 months. Regular evaluations were performed using fiberoptic laryngoscopy and electromyography to assess vocal fold mobility and nerve function recovery.

Results Obtained: By the end of the 12-month observation period: 70% of patients (35 out of 50) demonstrated significant improvement in voice quality and partial or complete restoration of vocal fold mobility. 20% of patients (10 out of 50) showed partial improvement with the development of stable compensatory phonation mechanisms. 10% of patients (5 out of 50) did not show significant improvement and were referred for surgical interventions. Phonopedic and speech therapy exercises, combined with physiotherapy, had the greatest impact in the early stages of treatment, while pharmacotherapy contributed to nerve regeneration in the long-term.

Summary: Conservative treatment is an effective method for restoring voice function in patients with unilateral vocal fold paralysis after thyroidectomy. A multidisciplinary approach combining pharmacotherapy, physiotherapy, and phonopedic rehabilitation significantly improves patient outcomes and quality of life. Early initiation of treatment and individualized programs are essential for maximizing recovery potential.

References:

1. Isayev D.Yu. Phonopedic Rehabilitation of Patients with Laryngeal Paralysis. – Moscow: Medicina, 2020.
2. Kapustina O.V., Ivanov A.A. Use of Neuroprotectors in Recurrent Laryngeal Nerve Paralysis. // Russian Journal of Otorhinolaryngology. – 2021. – No.3. – P. 45-49.
3. Kotelnikova E.V. Conservative Treatment of Laryngeal Paralysis after Thyroid Surgery. // Vestnik Otorhinolaryngologii. – 2019. – No.2. – P. 30-34.
4. Saveleva I.V. The Effect of Antioxidants on the Recovery of Recurrent Laryngeal Nerve Function. // Medical Science and Practice. – 2022. – No.4. – P. 58-63.
5. Petrova O.N. Speech Therapy Correction of Dysphonia. – St. Petersburg: ELBI, 2020.



РЕСПИРАТОР ДИСТРЕСС СИНДРОМИДА МУДДАТДАН ОЛДИН ТУҒИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ

Ҳошимов Бобур Лукмонович

т.ф.д., доцент Alfraganus университети

клиник фанлар кафедраси мудури

Хатамов Рустамжон Исломжон угли

Фаргона жамоат саломатлиги

тиббиёт институти мустақил изланувчиси

Email: dr.rustamjon@mail.ru

Аннотация. Муддатдан олдин туғилган чақалоқларда буйрак усти безининг тўлиқ шаклланмаслиги ва тимусни гиперплазия кўринишида катта бўлиши, стрессор омилларга экстримал адаптация реакцияларини пастлиги билан давом этиб, ўткир респиратор дистресс синдромини оғир кечиши ва чақалоқларда бевосита буйрак усти бези гормонини кортизолни етишмаслиги билан намоён бўлишини тасдиқлайди. Бу эса, ўз навбатида ўпкаларни кенгайиши ва сурфанктантни тўлиқ синтези бузилишига олиб келади. Буйрак усти безида морфологик жиҳатдан етилмаганлик, коптокчаларни деярлик ҳали куртак кўринишда бўлиши, спанигиоцитларни майда йирик ядроли, цитоплазмасида липидли киртималарни кам бўлиши, тўрсимон қават эпителийларини майда ядроли, оч цитоплазмаси кўринишда бўлиши билан характерланади.

Калит сўзлар: Муддатдан олдинги туғруқ, респиратор дистресс синдром, буйрак усти бези, морфология.

Муаммонинг долзарблиги: Дунёда неонатология соҳасининг асосий муаммолардан бири, бу – респиратор дистресс синдром (РДС) ва унинг морфологик белгиси сифатида бронхопульмонал дисплазия ва гиалинли мембраналар (ГМ) пайдо бўлиши ҳисобланади. Ўпканинг гиалинли мембраналари РДС-нинг энг асосий ва оғир кечувчи шакли ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотига кўра (ЖССТ) дунёда чала туғилиш ҳолатининг ўсиб боришиши, респиратор дистресс синдром (РДС) билан асоратланишининг глобал эпидемиологик кўрсаткичлари ҳар йили 3 миллион янги туғилган чақалоқларнинг 750 мингтасида аниқланади. Чала туғилган чақалоқларнинг яшаб кетиш имконияти, хорижий муаллифлар маълумотлари бўйича, ўртача 50% бўлиб, агар интенсив терапия қўлланилса 25% гача камаёди. Бундай болаларнинг ўлим сабаби асосан респиратор дистресс синдром ва гиалинли мембраналар ҳисобланади. Айнан, РДС синдромида чақалоқларни яшовчанлигини белгилашда буйрак усти бези ва тимусни интеграл боғлиқ жиҳатлари ҳам муҳим ҳисобланиб, экстримал адаптацияларда айнан, кортизол миқдорини ошиши ёки камайиши билан давом этиши юзага келади.

Айнан, АҚШ ва Европа иттифоқида ушбу патологиядан ўлим кўрсаткичи



бўйича, буйрак усти беши ва тимус билан боғлиқлиги бўйича алоҳида, келтирилмаган бўлсада, ўртача 1000 туғруққа 11-15 тани ташкил этади. Туркия, Канада, Жанубий Корея, Японияда бу кўрсаткич 1000 тага 15-17 тани ташкил этса, Россия федерациясида 1000 тага 20-30 тани ташкил этади. МДХ давлатларида бу кўрсаткич, 1000 тага 30-50 тани ташкил этиб, чақалоқ туғруқдан кейинги эрта неонатал даврда бу кўрсаткич 1000 тага 701 тадан ошиши мумкин. Бу албатта, РДС синдроми ўрганилгани билан, буйрак усти бешига боғлиқ жиҳатлари бўйича маълумотлар жуда кам ўрганилган бўлиб, муаммони долзарблиги англатади.

Муҳокама ва натижалар: РДС билан муддатдан олдинги туғруқда чақалоқларда мустақил нафас олишнинг бузилиши билан бирга, буйрак усти безининг етилмаганлиги ва буйрак усти безининг етишмовчилиги юзага келади. Муддатдан олдин туғилган РДС синдром билан нобуд бўлган чақалоқларда тимуснинг вазни меъёрга нисбатан 30,5% га ошганлиги, буйрак усти безининг вазни 1,6 гда эканлиги аниқланди. Натижада, барча аъзолар, жумладан ўпкаларни нафас олишга қаратилган стрессор кўзғалиш жавобинининг пастлиги, сурфанктат ишлаб чиқаришнинг сустлиги каби белгиларни йўқ бўлиши чақалоқларда ўлим кўрстаични ўртача 70-80% га ошишига олиб келади. Натижада, буйрак усти безининг мағиз қаватида қон қуйилиш ўчоқларининг бўлиши, катхоламинлар синтезинининг кучли даража юзага келганлиги, пўстлоқ қаватда барча соҳаларида етилмаган ва тўлиқ шаклланмаган хужайраларнинг морфофункционал мажруҳлиги, шу соҳада тўлақонлик кўринишида намоён бўлади. Натижада, Муддатдан олдин туғилган ва РДС синдроми мавжуд бўлган чақалоқларда клиник морфологик жиҳатдан Апгар шкаласи бўйича 1/1а балл кўринишида баҳоланиб, ўткир нафас етишмовчилигида буйрак усти безининг етишмовчилиги ва етилмаган пўстлоқ соҳасининг гипофункцияси туфайли летал кўрстаичларга олиб келганлигини тасдиқлайди. Морфологик жиҳатдан, буйрак усти беши капсуласи қалин, буйрак усти беши пўстлоқ соҳаларида коптокчали тузилмалари шаклланмаган найсимон кўринишида, секретор эпителий хужайралари эмбрионал хужайраларни эслатиши, тутамли қаватлари майда оч эозинофил цитоплазмасли хужайралардан ташкил топган бўлиб, цитоплазмасида липидли киритмалар деярлик топилмайди. Тўрсимон қавати майда етилмаган йирик ядроли секретор эпителийлардан иборат бўлиб, барча соҳаларида веноз тўлақонлик белгилари сақланиб турганлиги аниқланади мағиз қаватида вена қон томирлари тўлақонли, диапедез қон қуйилиши, оралиқ стромада шишилар, оч ва тўқ хужайраларнинг гиперсекреторлиги сақланган асосан катехоламинлар ишлаб чиқувчи хужайраларида липидли бирикмаларни бўлиши ва некробиозга учрган хужайраларни кўп бўлиши билан ҳарактерланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Świątnicki W, Szymański J, Szymańska A, Komuński P. Predictors of Intraoperative Aneurysm Rupture, Aneurysm Remnant, and Brain Ischemia following Microsurgical Clipping of Intracranial Aneurysms: Single-Center,



- Retrospective Cohort Study. //J Neurol Surg A Cent Eur Neurosurg. 2021 Sep;82(5):410-416.
2. Della Puppa A, Rossetto M, Volpin F, Rustemi O, Grego A, Gerardi A, Ortolan R, Causin F, Munari M, Scienza R. Microsurgical Clipping of Intracranial Aneurysms Assisted by Neurophysiological Monitoring, Microvascular Flow Probe, and ICG-VA: Outcomes and Intraoperative Data on a Multimodal Strategy. //World Neurosurg. 2018 May;113:e336-e344.
 3. Bakker MK, Ruigrok YM. Genetics of Intracranial Aneurysms. //Stroke. 2021 Aug;52(9):3004-3012.
 4. McDowell MM, Ducruet AF. The genetics of aneurysms: a complex pathophysiology requiring complex analysis. //World Neurosurg. 2015 Mar;83(3):280-1.
 5. Lucke-Wold BP, Logsdon AF, Manoranjan B, Turner RC, McConnell E, Vates GE, Huber JD, Rosen CL, Simard JM. Aneurysmal Subarachnoid Hemorrhage and Neuroinflammation: A Comprehensive Review.// Int J Mol Sci. 2016 Apr 2;17(4):497.
 6. Zeyu Zhang, Yuanjian Fang, Cameron Lenahan, Sheng Chen. The role of immune inflammation in aneurysmal subarachnoid hemorrhage. //Exp Neurol. 2021 Feb;336:113535
 7. Rowland MJ, Garry P, Westbrook J, Corkill R, Antoniadou CA, Pattinson KTS. Acute impairment of saccadic eye movements is associated with delayed cerebral ischemia after aneurysmal subarachnoid hemorrhage. //J Neurosurg. 2017 Oct;127(4):754-760.
 8. Dong L, Zhou Y, Wang M, Yang C, Yuan Q, Fang X. Whole-brain CT perfusion on admission predicts delayed cerebral ischemia following aneurysmal subarachnoid hemorrhage.// Eur J Radiol. 2019 Jul;116:165-173.



РЕСПИРАТОР ДИСТРЕСС СИНДРОМИДА МУДДАТИДА ТУҒИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ

Ҳошимов Бобур Лукмонович

т.ф.д., доцент Alfraganus университети

клиник фанлар кафедраси мудир

Хатамов Рустамжон Исломжон угли

Фарғона жамоат саломатлик тиббиёт

институту мустақил изланувчиси

Email: dr.rustamjon@mail.ru

Аннотация. Муддатида туғилган чақалоқларда ривожланган респиратор дистресс синдромда нафас олишга қаратилган рефлексни устунлиги муддатдан олдин туғилган чақалоқларда кучли амалга ошишини инобатга олганда, буйрак усти безининг гиперфункционал кўриниши юзага келиб, ҳажман ва вазнини ошиши, асосан, пўстлоқ қават тутамли соҳасини катталашагналиги, ораликда тўлақонлик, шишлар, спонгиоцитларни ҳажман катталашганлиги, секретор хужайраларда липидли киритмаларни кўпайганлиги, периферияда, қонда кортизолни концентрациясини ошиб кетиши, буйрак усти бези пўстлоқ қаватида веноз тўлақонлик ҳисобига диапедез қон қуйилиши ва буйрак усти бези етишмовчилиги билан чақалоқларни нобуд бўлишига олиб келганлиги аниқланди.

Калит сўзлар: Муддатдаги туғруқ, респиратор дистресс синдром, буйрак усти бези, морфология.

Муаммонинг долзарблиги: Дунёда неонатология соҳасининг асосий муаммолардан бири, бу – респиратор дистресс синдром (РДС) ва унинг морфологик белгиси сифатида бронхопульмонал дисплазия ва гиалинли мембраналар (ГМ) пайдо бўлиши ҳисобланади. Ўпканинг гиалинли мембраналари РДС-нинг энг асосий ва оғир кечувчи шакли ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотида кўра (ЖССТ) дунёда чала туғилиш ҳолатининг ўсиб боришиши, респиратор дистресс синдром (РДС) билан асоратланишининг глобал эпидемиологик кўрсаткичлари ҳар йили 3 миллион янги туғилган чақалоқларнинг 750 мингтасида аниқланади. Чала туғилган чақалоқларнинг яшаб кетиш имконияти, хорижий муаллифлар маълумотлари бўйича, ўртача 50% бўлиб, агар интенсив терапия қўлланилса 25% гача камаяди. Бундай болаларнинг ўлим сабаби асосан респиратор дистресс синдром ва гиалинли мембраналар ҳисобланади. Айнан, РДС синдромида чақалоқларни яшовчанлигини белгилашда буйрак усти бези ва тимусни интеграл боғлиқ жиҳатлари ҳам муҳим ҳисобланиб, экстримал адаптацияларда айнан, кортизол миқдорини ошишиёки камайиши билан давом этиши юзага келади.

Айнан, АҚШ ва Европа иттифоқида ушбу патологиядан ўлим кўрсаткичи бўйича, буйрак усти бези ва тимус билан боғлиқлиги бўйича алоҳида,



келтирилмаган бўлсада, ўртача 1000 туғрукка 11-15 тани ташкил этади. Туркия, Канада, Жанубий Корея, Японияда бу кўрсатич 1000 тага 15-17 тани ташкил этса, Россия федерациясида 1000 тага 20-30 тани ташкил этади. МДХ давлатларида бу кўрсатич, 1000 тага 30-50 тани ташкил этиб, чакалок туғрукдан кейинги эрта неонатал даврда бу кўрсатич 1000 тага 701 тадан ошиши мумкин. Бу албатта, РДС синдроми ўрганилгани билан, буйрак усти безига боғлиқ жиҳатлари бўйича маълумотлар жуда кам ўрганилган бўлиб, муаммони долзарблиги аниқланади.

Мухокама ва натижалар: РДС синдромида муддатида туғилган чакалоқлар буйрак усти бези ва тимусни интегратив реакциясини кучайиши оқибатида, муддатдаги туғрукда буйрак усти безининг тезкор стресс ҳолатига тушиши пўстлоқ ва мағиз соҳаларида массив тўлақонлик, тутамли соҳасидаги спангиоцитларни кўп миқдорда липидли киритмаларга бой бўлиши, майда капиллярларда сладж феномени, эритростаз, диapedез қон қуйилиш каби ўзгаришларни юзага келганлиги аниқланди. Бу эса, периферик қонда кортизолни кўп миқдорда ишлаб чиқарилиши ва тимусни кичиклашиши каби ўзгаришлар билан намоён бўлганлиги аниқланади. Тимусни ҳажман кичиклашиши, пўстлоқ ва мағиз қаватида кортикомедуляр соҳалари чеграсини кескин ноаниқ бўлиши, мағизни торайиши, майда кичик томиоцитларни кўпайиши, эпителиал ва макрофагал ҳужайраларни кўпайиши некробиозга учраши, Гассал таначаларини нотўғри кўринишда шаклланиши билан намоён бўлиб, тимусни инволютив кўринишга келганлиги билан изоҳланади. Буйрак усти безининг пўстлоқ ва мағиз соҳасидаги массив тўлақонлиги, мағиз қаватига массив қон қуйилиши, оч ва тўқ ҳужайраларни нисбати ўзгариши, стромани яланғочланганлиги ва марказий венани тўлақонлиги каби ўзгаришлар билан намоён бўлиши аниқланади. Буйрак усти бези пўстлоқ қавати коптокча, тутамли ва тўрсимон соҳаларида бир хил кўринишдаги тўлақонлиги, энг йирик секретор ҳужайралар асосан тутамли соҳаларида бўлиши, спангиоцитларни алоҳидалашган кўринишда, дистрофик, некробиотик ва некрозга учраши, коптокча ва тутамли соҳалардаги спангиоцитларни вакуол бўкиши, тутамли ва тўрсимон қаватдаги чегара спангиоцитлар цитоплазмасида липидли киритмаларни кескин кўпайиши, кластмолизи (ҳужайраларни алоҳидалашган парчаланиши), майда капиллярларда тўлақонлик сабабали ўтказувчанлиги ошиши ва оралик стромани плазматик бўкиши кўринишидаги морфологик ўзгаришлар, буйрак усти бези етишмовчилиги билан намоён бўлиб, бевосита РДС синдромида юзага келган ўлимнинг танотогенез механизмини ойдинлаштиришда ва олдини олишда муҳим мезон бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Al-Ghamdi WM, Shazly MA, Al-Agha AE. Testicular adrenal rest tumors in children with congenital adrenal hyperplasia. S//audi Med J. 2021 Sep;42(9):986-993.
2. Arinchin VN, Balakleevskaia VG, Sevkovskiĭ AI. Vzaimosvĭaz' sostoianiĭa krovoobrashcheniĭa s aktivnost'iu simpatiko-adrenalovoi sistemy u detei rannego



vozrasta, bol'nykh ostrymi pnevmoniiami s gnoinymi oslozhneniiami [Interrelations between blood circulation and the activity of the sympathetic-adrenal system in infants with acute pneumonia and its suppurative complications]. *Pediatrica*. 1989;(2):18-23

3. Arlt W, Baldeweg SE, Pearce SHS, Simpson HL. Endocrinology in the time of COVID-19: Management of adrenal insufficiency. // *Eur J Endocrinol* (2020) 183(1):G25–32.

4. Bancos I, Hazeldine J, Chortis V, Hampson P, Taylor AE, Lord JM, Arlt W. Primary adrenal insufficiency is associated with impaired natural killer cell function: a potential link to increased mortality. // *Eur J Endocrinol*. 2017 Apr;176(4):471-480.

5. Blair P.S., Sidebotham P., Berry P.J. et al. Major epidemiological changes in sudden infant death syndrome: a 20-year population-based study in the UK // *Lancet*. 2006. Vol. 367. P. 314—319.

6. Davies P. Addressing fundamental questions on MIS-C. // *Lancet Child Adolesc Health*. 2021 May;5(5):310-311.

7. Dehner LP, Hill DA. Adrenal cortical neoplasms in children: why so many carcinomas and yet so many survivors? *Pediatr Dev Pathol*. 2009 Jul-Aug;12(4):284-91

8. Ding S, Xu Y, Wang H, Yue H, Pan Z, Sun B; Huai'an Perinatal-Neonatal Study Group. Outcome of neonatal hypoxemic respiratory failure: a livebirth population-based retrospective survey. // *BMC Pediatr*. 2022 Sep 17;22(1):552.

9. Duan K, Mete O (2015) Clinicopathologic Correlates of Primary Aldosteronism. *Arch Pathol Lab Med* 139:948–954.

10. Elhassan YS, Ronchi CL, Wijewickrama P, Baldeweg SE. Approach to the Patient With Adrenal Hemorrhage. *J Clin Endocrinol Metab*. 2023 Mar 10;108(4):995-1006.

11. Emre Ş, Özcan R, Bakır AC, Kuruğöglü S, Çomunoğlu N, Şen HS, Celkan T, Tekant GT. Adrenal masses in children: Imaging, surgical treatment and outcome. // *Asian J Surg*. 2020 Jan;43(1):207-212

12. Ikeda H, Suzuki N, Takahashi A, Kuroiwa M, Nagashima K, Tsuchida Y, Matsuyama S. Surgical treatment of neuroblastomas in infants under 12 months of age. *J Pediatr Surg*. 1998 Aug;33(8):1246-50



ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**РАЗРАБОТКА АЛЬТЕРНАТИВНОЙ МЕТОДИКИ ДЛЯ
КОЛИЧЕСТВЕННОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ L-ГЛУТАМИНОВОЙ
КИСЛОТЫ В КОМБИНИРОВАННОМ ИНФУЗИОННОМ РАСТВОРЕ**

Ш.М. Аглоходжаева

А.Д. Ташпулатова

Ташкентский фармацевтический институт

Шахнозахон Мухаммад кизи Аглоходжаева

Азизахон Дилшодовна Ташпулатова

e-mail: agloxodjayevashaxnoza@gmail.com

aiza2505@mail.ru

Аннотация. В работе представлена разработка альтернативной методики количественного определения L-глутаминовой кислоты в комбинированном инфузионном растворе с использованием метода титрования. Актуальность работы обусловлена необходимостью точного и доступного способа контроля содержания аминокислоты в лекарственных препаратах, применяемых в клинической практике. Предложенная методика основана на кислотно-основном титровании с использованием индикатора, обеспечивающего достоверную фиксацию конечной точки титрования. Результаты показали, что разработанный способ является простым в применении, экономически эффективным и может быть использован в условиях лабораторного контроля качества фармацевтической продукции.

Ключевые слова. L-глутаминовая кислота, титрование, инфузионный раствор, комбинированный препарат.

Основной показатель, подтверждающий возможность безопасного и эффективного использования лекарственного препарата (ЛП) в клинической практике – это его качество, то есть соответствие требованиям фармакопейной статьи или иного нормативного документа [1]. Показатель «количественное определение» – один из наиболее важных для оценки качества как активной фармацевтической субстанции, так и готового ЛП при серийном производстве и обращении на фармацевтическом рынке. Соответствие данному критерию обеспечивает правильную дозировку активного вещества в ЛП и, следовательно, ожидаемый терапевтический эффект. Для количественного определения используют аналитические методики, основанные на физико-химических и биологических свойствах лекарственного средства (ЛС) [2].

Для количественного определения активного вещества в современном фармацевтическом анализе используют методы спектроскопии, высокоэффективной жидкостной хроматографии и газовой хроматографии. Однако эти методы нуждаются в наличии стандартных образцов. При



отсутствии стандартного образца для лекарственной субстанции необходимо разработать прямой метод анализа [3]

Кроме этих методов, широкое распространение получили титриметрические методы анализа. Они позволяют использовать разнообразные химические реакции и определять вещества, учитывая их свойства и строение. Метод достаточно экспрессен и позволяет оценивать содержание с большой степенью точности и, как правило, не нуждается в сложном оснащении, а также может использоваться как в лабораториях, так и, при необходимости, в аптеках [4].

Цель работы. Разработка альтернативной методики количественного определения L-глутаминовой кислоты в инфузионном растворе “Гепатопротем” с применением титриметрического метода.

Материалы и методы. Отбирали 5 мл препарата в коническую колбу вместимостью 100 мл, добавляют 25 мл ацетон перемешивали. Титровали 0,1 М натрия гидроксидом до перехода окраски в розовый. Индикатор 0,5 мл фенолфталеин.

1 мл 0,1 М раствора натрия гидроксида соответствует 7,335 мг L-глутаминовая кислота.

Содержание L-глутаминовая кислота (X) в 1 мл препарата, в миллиграммах, высчитывали по формуле:

$$X = \frac{(V_1 - V_2) \times K \times 7,335}{5}$$

где: V_1 — объем 0,1 М раствора натрия гидроксида, израсходованный на титрование испытуемого раствора, в миллилитрах;

V_2 — объем 0,1 М раствора натрия гидроксида, израсходованный на титрование контрольного раствора, в миллилитрах;

K - поправочный коэффициент к молярности 0,1 М раствора натрия гидроксида;

7,335 - количество L-глутаминовой кислоты, соответствующее 1 мл 0,1 М раствора натрия гидроксида, в миллиграммах.

Контрольный раствор. Отбирали 25 мл ацетона в коническую колбу вместимостью 100 мл.

Результаты. Результаты исследования приведены в таблице 1.

Результаты количественного определения анализа L-глутаминовой кислоты методом титрования

Найдено (мг/мл)	Метрологическая характеристика
9,33	$\Delta x = 9,344$ $S = 0,025$ $S_x = 0,011$ $\varepsilon = 0,7$
9,32	
9,36	
9,33	
9,38	



Исследования показали, что среднее количество L-глутаминовой кислоты в комбинированном инфузионном препарате “Гепатопротем” раствор для инфузий, составляет 9,344 мг/мл и удовлетворяет установленным требованиям от 8,244 мг/мл до 10,076 мг/мл.

Выводы. В процессе исследований установлено, что разработанная методика определения количественного содержания L-глутаминовой кислоты в инфузионном растворе позволяет получить достоверные и надежные результаты, а также может быть использована для количественного определения L-глутаминовой кислоты в инфузионном растворе.

Список использованной литературы.

1. Шпрах З.С., Игнатьева Е.В., Ярцева И. В. Разработка и валидация методики количественного определения аранозы в лекарственной форме. Российский Биотерапевтический Журнал. 2018. №2. Том17. С.57-62
2. Валиев Ал, Георгиянц В. А., Здорик А. А. Разработка и валидация методики количественного определения азитромицина // Актуальные проблемы медицины. 2012. №10 (129). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-i-validatsiya-metodiki-kolichestvennogo-opredeleniya-azitromitsina>
3. Афолина Н.Д., Ерофеева Л.Н., Воронкина С.С. Разработка и валидация методики количественного определения клотримазола в лекарственных пленках для лечения отомикозов. Вестн. Моск. ун-та. сер. 2. химия. 2013. т. 54. № 1. С.67-71.



РАЗРАБОТКА АЛЬТЕРНАТИВНОЙ МЕТОДИКИ ДЛЯ КОЛИЧЕСТВЕННОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ L-АРГИНИНА В КОМБИНИРОВАННОМ ИНФУЗИОННОМ РАСТВОРЕ

Ш.М. Аглоходжаева, А.Д. Ташпулатова
Ташкентский фармацевтический институт
Шахнозахон Мухаммад кизи Аглоходжаева
Азизахон Дилшодовна Ташпулатова
e-mail: agloxodjayevashaxnoza@gmail.com
aiza2505@mail.ru

Аннотация. В данной работе представлена разработка альтернативной методики количественного определения L-аргинина в составе комбинированного инфузионного раствора с использованием метода Кьелдаля. Предложенный подход основывается на определении общего содержания азота, с последующим пересчетом на концентрацию L-аргинина. Методика была адаптирована с учетом особенностей многокомпонентной лекарственной формы, включая возможные помехи со стороны других аминокислот и вспомогательных веществ. Проведённые валидационные исследования подтвердили воспроизводимость, точность и пригодность метода Кьелдаля в качестве простой и доступной альтернативы высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) для рутинного контроля качества.

Ключевые слова. L-аргинин, метод Кьелдаля, инфузионный раствор, комбинированный препарат.

Аминокислоты представляют собой основные компоненты, из которых формируются белки, и одновременно выполняют функцию ключевых метаболических посредников в жизненно важных биохимических процессах организма человека [1]. Известно свыше 500 разновидностей аминокислот, однако наибольшее значение имеют 22 протеиногенные аминокислоты — именно они участвуют в синтезе белков, и среди них особое место занимает аргинин [2].

Аргинин относится к числу аминокислот, приобретающих незаменимый статус в условиях стрессовых нагрузок на организм. Он участвует в процессах обезвреживания аммиака, регулирует гормональную активность, поддерживает полноценное функционирование иммунной системы и активизирует синтез белковых структур. Дефицит аргинина может стать причиной разрушения тканей, особенно у пациентов с тяжелыми патологическими состояниями. Для количественного анализа аминокислот, включая L-аргинин, наряду с такими популярными методами, как хроматография, флуориметрия и капиллярный электрофорез, активно используется метод Кьелдаля. Его популярность обусловлена доступностью, высокой скоростью проведения анализа и способностью охватывать широкий



диапазон концентраций определяемых веществ [3].

Цель работы. Цель работы заключается в разработке и обосновании альтернативной методики количественного определения L-аргинина в составе комбинированного инфузионного раствора “Гепатопротем”.

Материалы и методы. 5 мл препарата пипеткой переносят в колбу Кьельдаля для дистилляции вместимостью 250 мл, три стеклянных шарика для пенящихся веществ и 1 г растертой смеси калия сульфата и меди сульфата, взятых в соотношении 10:1. Прибавляют 7 мл концентрированной серной кислоты, колбу соединяют с обратным холодильником. Кипячение продолжают еще 30 мин или более до просветления раствора. Если при кипячении происходит сильное пенообразование, то рекомендуется снять колбу Кьельдаля с нагревательного прибора и дать пене осесть, затем снова продолжают нагревание, не допуская попадания пены в горло колбы. После охлаждения колбы Кьельдаля в нее осторожно прибавляют 20 мл воды, вращая колбу для перемешивания содержимого, вновь охлаждают и присоединяют колбу к собранному прибору для определения азота (рисунок), заранее промытому путем пропускания через него пара. После сборки прибора в холодильник пускают воду и доводят до кипения воду в паро-образователе. Затем в колбу из воронки медленно по каплям прибавляют 40 мл натрия гидроксида раствора 30 %, следя за тем, чтобы раствор в колбе энергично перемешивался поступающим паром. Для обеспечения большей герметичности прибора в воронке следует оставлять некоторый избыток натрия гидроксида раствора 30%. Другой конец холодильника погружают в 20 мл 4 % раствора кислоты борной и прибавляют 0,25 мл (5капель) смешанного индикатора, таким образом, чтобы дистиллят попадал непосредственно в раствор кислоты и получают около 40 мл дистиллята. По окончании отгонки дистиллят титруют хлористоводородная кислота раствором 0,1 М до перехода окраски смешанного индикатора из зеленую в розовый. Проводят контрольный опыт таким же образом и с теми же реактивами, с контрольного раствора.

Содержание L-аргинина (X) в 1 мл препарата, в миллиграммах, вычисляют по формуле:

$$X = \frac{(V_1 - V_2) \cdot K \cdot T}{V}$$

где: V_1 – объем 0,1 М раствора хлористоводородная кислота, израсходованный на титрование испытуемого раствора, мл;

V_2 – объем 0,1 М раствора хлористоводородная кислота, израсходованный на титрование контрольного раствора, мл;

K – поправочный коэффициент к титру раствора хлористоводородная кислота;

T – 4,355 мг/мл – титр 0,1 М раствора хлористоводородная кислота по L-аргину;

V – объем раствора, взятый для анализа, мл.

Приготовление контрольного растворов для определения аргинина.



0,916 г (точная навеска) РСО (рабочие стандартные образцы) L-глутаминовая кислота помещают в мерную колбу вместимостью 100 мл, растворяют в 75 мл воде, доводят раствор водой до метки и перемешивают. Раствор должен быть свежеприготовленным.

Индикатор смешанный. Растворяют 0,125 г метилового красного в 50 мл этилового спирта и 0,085 г

Результаты. Исследования показали, что среднее количество L-аргинина в комбинированном инфузионном препарате “Гепатопротем” раствор для инфузий, составляет 9,9 мг/мл и удовлетворяет установленным требованиям от 9,756 мг до 11,924 мг.

Выводы. В процессе исследований установлено, что разработанная методика определения количественного содержания L-аргинина в инфузионном растворе позволяет получить достоверные и надежные результаты, а также может быть использована для количественного определения L-аргинина в инфузионном растворе.

Список использованной литературы.

1. Lea P.J., Azevedo R.A. Encyclopedia of Applied Plant Sciences. V.2. Amino acids. Academic press. 2017. 1706 p.
2. Albaugh V.L., Barbul A. Arginine. Nashville: Vanderbilt University School of Medicine. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B9780128096338060829> (accessed 1 September 2019). DOI: 10.1016/b978-0-12-809633-8.06082-9.
3. Попова Валентина Александровна, Пономарева Мария Николаевна, Короткова Елена Ивановна Определение L-аргинина в биологически активной добавке методом вольтамперометрии // Известия ВУЗов. Химия и химическая технология. 2020. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-l-arginina-v-biologicheskii-aktivnoy-dobavke-metodom-voltamperometrii> (дата обращения: 19.05.2025).



АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

XORAZM VOHASI SHAROITIDA KARDU-1000 MAKKAJO'XORI
NAVINING BIOLOGIYASI VA OZIQLANTIRISH TA'SIRINI
O'RGANISH

Kurbanbayeva Xurshidaxon Shuxratovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti,

Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti,

Agronomiya kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Xorazm vohasi sharoitida Kardu-1000 makkajo'xori navining hosildorligiga turli oziqlantirish me'yorlari va ekish sxemalarining ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Xorazm viloyati, nav, variant, ko'chat qalinligi, ekish tizimi, o'simlik bo'yi, bargi.*

Аннотация: В данном тезисе изучено влияние различных норм удобрения и схем посадки на урожайность кукурузы сорта Карду-1000 в условиях Хорезмской области.

Ключевые слова: Хорезмская область, сорт, вариант, густота посадки, схема посева, высота растения, лист.

Annotation: This thesis examines the effect of different fertilization rates and planting schemes on the yield of the Kardu-1000 maize variety under the conditions of the Khorezm region.

Keywords: Khorezm region, variety, variant, planting density, planting scheme, plant height, leaf.

Hozirgi kunda respublikamizda donchilikda innovatsion agrotexnologiyalarni qo'llash bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos navlarni tanlash, ularni parvarishlashda maqbul qator oralig'i va oziqlantirish me'yorlarini aniqlash, mineral o'g'itlar bilan ta'minlash, sug'orish rejimlarini to'g'ri tashkillashtirish orqali yuqori hosil olishga erishish muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Ayniqsa, Xorazm vohasi sharoitida istiqbolli navlar bo'lgan "Kardu-1000" va "Kelajak-100"ning biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning qator oralig'i va o'g'it normasi bilan bog'liq agrotexnik tadbirlariga javobini aniqlash orqali yuqori hosil olish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda makkajo'xorining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish sxemasi va ko'chat sonining ta'sirini o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, I.A. Israilov va N.M. Xurammova o'z tadqiqotlarida "Kelajak-100" navini 70×20 sm, 60×25 sm va 50×30 sm sxemalarda ekib, hosildorlik ko'rsatkichlarini taqqoslab o'rganganlar.

Mualliflarning ta'kidlashicha, 60×25 sm ekish sxemasi eng samarali bo'lib, bu variantda har gektar maydonda optimal ozuqa maydoni yaratilgan va 106,3 s/ga



hosildorlik qayd etilgan. Boshqa sxemalardan — 70×20 sm va 50×30 sm ekish variantlarida esa hosildorlik mos ravishda 92,7 s/ga va 95,5 s/ga ni tashkil etgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 60×25 sm sxema o'simliklar orasidagi optimal masofani ta'minlab, yorug'lik, oziqa va suvdan samarali foydalanish imkonini bergan. Mualliflar xulosasiga ko'ra, "Makkajo'xorining 'Kelajak-100' navini aynan 60×25 sm sxemada ekish natijasida don hosildorligi va pishib yetilishning tezligi sezilarli darajada oshadi". [1]

K. Azizov va D. Yedenbayevlarning ilmiy izlanishlarida, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan makkajo'xori ekinidan yuqori hosil olish, uning oziqaviy va biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, hamda seleksion ustunlikka ega yangi navlarni yaratish dolzarb masala sifatida qaraladi. Ularning olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari ayniqsa mahalliy sharoitda iqlim o'zgarishlariga bardoshli, yuqori don va yashil massa hosilini bera oladigan istiqbolli navlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu sohadagi mavjud muammolarga amaliy yechim taklif qilmoqda. So'nggi yillarda yoz oylarida havo haroratining 45–50°C gacha ko'tarilishi, suv tanqisligi va mavjud navlarning ko'p hollarda agroekologik stresslarga bardosh bera olmasligi sababli, mahalliy seleksiyada ekologik moslashgan, tezpishar, serhosil navlarga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, "Kelajak-100" va "Esdalik-80" kabi yangi yaratilgan navlar ahamiyat kasb etadi. [2]

Tadqiqot materiallari va uslubi. Yuqorida bayon etilgan ilmiy qarashlar va oziqlantirish tizimining makkajo'xori hosildorligiga ta'siri bilan bog'liq dolzarb muammolarni inobatga olgan holda, bizning ilmiy-tadqiqot ishlarimiz 2025-yil vegetatsiya davrida Xorazm viloyatining Urganch davlat universiteti tajriba maydonida olib borildi. Tajriba sharoitida makkajo'xorining istiqbolli "Kardu-1000" navi tanlab olinib, o'simliklarning oziqlanish darajasi va qator oralig'i oralig'idagi o'zaro ta'sirini aniqlash maqsadida ikki xil mineral o'g'it me'yori (N150P90K90 va N200P120K90) hamda uch xil ekish sxemasi (15×70 sm, 20×70 sm va 25×70 sm)da ekish ishlari amalga oshirildi.

Asosiy ekin			
№	Navlar	Ekish tizimi	O'g'it me'yori
1	Kardu-1000	60x15-1	N150, P90, K90
2			N200, P120, K90
3		60x20-1	N150, P90, K90
4			N200, P120, K90
5		60x25-1	N150, P90, K90



6			N200, P120, K90
---	--	--	-----------------

Tadqiqoqt natijalari. 2025-yil mavsumida Xorazm vohasi sharoitida “Kardu-1000” makkajo’xori navining o’sish dinamikasi va asosiy biometrik ko’rsatkichlariga ekish tizimi hamda mineral o’g’itlar me’yorining ta’sirini aniqlash bo’yicha dala sharoitida tajriba ishlari olib borildi. Tajribada “Kardu-1000” navi 60x15-1, 60x20-1 va 60x25-1 qator oralig’ida ikki xil oziqlantirish fonida (N150P90K90 va N200P120K90) ekilib, 2-maydan boshlab 10-iyungacha har 10 kunlikda o’simlik bo’yi va barg uzunligi o’lchab borildi.

Tahlil natijalariga ko’ra, 1-variant (60x15-1, N150P90K90) sharoitida 2-may holatida o’simlik bo’yi 7 sm, barg uzunligi esa 9 sm bo’lgan bo’lsa, 10-iyunga kelib ushbu variantda o’simlik balandligi 132 sm, barg uzunligi esa 80 sm gacha yetdi. Shu variantga nisbatan oziqlanish fonini kuchaytirib, N200P120K90 qo’llanilgan 2-variantda 10-iyunda o’simlik balandligi 164 sm, barg uzunligi esa 85 sm bo’lib, nazorat variantdan mos ravishda 32 sm va 5 sm yuqori natija kuzatildi.

Ekish sxemasi 60x20-1 bo’lgan variantlarda esa 4-variant (yuqori o’g’itlash fonida) o’simlik balandligi bo’yicha eng yaxshi natijani ko’rsatib, 10-iyunga kelib 192 sm ga yetdi, bu esa nazoratdan (1-variant) 60 sm baland bo’ldi. Barg uzunligi esa 96 sm bo’lib, barcha variantlar orasida maksimal ko’rsatkich bo’ldi.

60x25-1 ekish sxemasi sharoitida ham yuqori oziqlantirish (N200P120K90) fonida 230 sm o’simlik bo’yi va 114 sm barg uzunligi qayd etilib, bu ko’rsatkich boshqa barcha variantlardan ustun bo’ldi. Bu natijalar shuni ko’rsatadiki, qator oralig’i kengaygani sari, ayniqsa, yuqori oziqlanish bilan birga qo’llanganda o’simliklarda bo’y o’sishi, barglarning kengligi va umumiy vegetativ massa ortadi.

Shunday qilib, “Kardu-1000” navining optimal o’sishi va rivojlanishi uchun 60x25-1 ekish sxemasi va N200P120K90 me’yorda oziqlantirish eng maqbul natija berganligi aniqlandi.



№	Navlar	Ekish tizimi	O'g'it me'yor	Sanalar									
				2.05		12.05		22.05		1.06		10.6	
				Bo'y uzunligi	Barg uzunligi	Bo'y uzunligi	Barg uzunligi	Bo'y uzunligi	Barg uzunligi	Bo'y uzunligi	Barg uzunligi	Bo'y uzunligi	Barg uzunligi
1	Kardu-1000	60x15-1	N150, P90, K90	7	9	25	27	40	30	70	60	132	80
2			N200, P120, K90	9	9	31	28	50	45	87	66	164	85
3		60x20-1	N150, P90, K90	8	9	40	35	56	45	90	65	155	75
4			N200, P120, K90	11	10	50	45	70	65	112	77	192	96
5		60x25-1	N150, P90, K90	10	10	50	50	62	50	100	65	185	95
6			N200, P120, K90	13	11	62	55	77	68	124	78	230	114

Xorazm viloyati sharoitida ekish tizimi va mineral o'g'itlar me'yorining makkajoxori biometrik ko'rsatkichlariga ta'siri, sm. (2025y)



Xulosa. O'tkazilgan dala tajribasi natijalariga ko'ra, Xorazm viloyati agroiklim sharoitida makkajo'xorining "Kardu-1000" navi uchun ekish tizimi va mineral o'g'it me'yorlari o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Eng yaxshi natijalar 60x25-1 sxemada ekilib, N200P120K90 me'yoridagi oziqlantirish fonida kuzatilib, 10-iyunga kelib o'simlik bo'yi 230 sm, barg uzunligi esa 114 sm ga yetdi. Bu ko'rsatkichlar nazorat varianti hisoblangan 60x15-1 sxema va N150P90K90 oziqlanish foniga nisbatan mos ravishda 98 sm va 34 sm ga yuqori bo'ldi. Bu esa ekish sxemasi kengaygani va oziqlantirish me'yori oshirilgani sari o'simliklarda vegetativ organlarning faol rivojlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, yuqori oziqlantirish fonida barg uzunligi va o'simlik bo'yining izchil o'sishi kuzatilib, hosildorlikka bevosita ta'sir etuvchi biometrik ko'rsatkichlarning oshganligi qayd etildi.

Shu boisdan, makkajo'xorining "Kardu-1000" navini Xorazm sharoitida yuqori hosil olish maqsadida 60x25-1 sxemada va N200P120K90 o'g'it me'yorida etishtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Israilov, N.M.Xurammova. Makkajo'xori "Kelajak-100" navining ko'chat sonini hosildorlikka ta'sirini o'rganish. // O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI-2023-№ 6 (12/2).-B. 115-118
2. Azizov Q., Edenbayev D., Nazarov X., Kuliyeu T. Янги яратилган маҳаллий истиқболли маккажўхори навларининг қимматли хўжалик белгилари ва ишлаб чиқариш натижалари. // O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. – 2022. – №11. – B. 19-20 va boshqalar.



ГЕОГРАФИЯ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

OROL EKOLOGOIK MUAMMOSI UNGA BERILAYOTGAN E'TIBOR MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Qobilova Muattar Shukurjon qizi

Namangan Davlat Universiteti talabasi

Telefon: +998883757004

qobilovamuattar1@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada butun dunyo ayniqsa mintaqamiz mamlakatlarini larzaga solayotgan orol dengizining qurishi ekologik muammosi, uning O'zbekistonga ta'siri bunga qarshi yurtimiz va jahon davlatlarida ko'rilayotgan ishlar haqida yoritilgan bo'lib shularga asoslangan holda mahalliy va xorij olimlarining fikrlari ilmiy tadqiqotlarini o'rganilgan holda turli yechimlar ilgari surilgan

KALIT SO'ZLARI: Dengiz, jahon okeani, Markaziy Osiyo, ravnaq, porloq, saksovul, intensiv ekin, gidrotexnik inshootlar, delta, kimyoviy moddalar, drenaj havza, saksovul.

O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. 1960-yilda Orol dengizi hajmi bo'yicha dunyoda 4- o'rinni egallagan bo'lsa, 2007- yilga kelib u avvalgi hajmining 10% ga qisqardi. Endilikda esa orol yuzasi 3,500km kv, hajmi 27 km kub. Hozirgi kunda orol havzasi 3ta turli xil bo'laklarga ajralib ketgan bo'lib uning katta qismi mamlakatimizda joylashgan. [8]

Orolni saqlab qolish uchun hozirgacha qilingan ishlar

- Jahonda

Orolning qurishi nafaqat O'zbekistonga balki butun mintaqa mamlakatlari ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa Qozog'iston bunda ancha gina talofat ko'rdi. Biroq 2005 yilda qurilgan to'g'on tufayli ushbu ko'lning eng shimoliy qismi maydoni tez o'sishni boshladi va suvning sho'rliqi pasaya boshladi. Natijada bor yo'g'i 8 oy ichida bu yerdagi suv sathi Jahon okeani sathidan 40m dan 42m gacha, oldindan hisoblangan balandlikka suv yuzasi maydoni 18%ga oshdi va suvning sho'rliqi taxminan 20g/l dan boshlanib, doimiy ravishda pasayib, bugungi kunda 10g/l darajaga yetdi.[2]

O'zbekistonda

Bugun O'zbekiston dunyoda misli ko'rilmagan tajribaga qo'l urmoqda: dengiz o'rnidagi sahroni o'rmonga aylantirmoqchi. Ko'rimsiz va butasimon saksovul Markaziy Osiyoda tabiiy o'sib kelgan daraxt. O'zbekistondagi Qizilqum sahrosida bir necha tabiiy saksovul o'rmonlari ham bor. Orol dengizining qaqragan hududidan bostirib kelayotgan sahroni to'xtatish maqsadida 2019 yilda 500ming gektar yashil qalqonlar barpo etildi.

Odamlar tabiiy muhitni tezda yo'q qilishlari mumkin, ammo uni tiklash uzoq va qiyin jarayondir! Orol dengizining qurishi 40 yildan ortiq davom etmoqda. Uzoq muddatli, ekologik barqaror yechimlarni amalga oshirish nafaqat yirik kapital qo'yilmalar va texnologik inovatsiyalarni, balki tub siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni ham talab qiladi.[2]



Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu ishda orolni qutqarish bo'yichz bir necha loyihalar. Keng qamrovli va o'zaro bog'liq 3ta banddan iborat bo'lib ularni bosqichma bosqich va uzliksiz davom ettirish yordamida orol dengizi eko holatini yaxshilash hatto sekin astalik bilan avvalgi holati darajasiga kelirish ham mumkin.

Loyihalarning asosiy maqsadi qurigan orol dengiz tubini ekologik holatini yaxshilash sho'r tuproqlarda o'sadigan, hayvonlar va boshqa o'simliklar uchun ishonchli bosh pana bo'ladigan, ekotizimni yashash uchun qulay muhit yaratish orol bo'yi regionini aholisining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishu uchun qulay infra tuzilmani yaratish, qattiq buta bo'lgan qora saksovul ko'chatlari bilan o'rmonzorlashtirishdan hamda dengizning suv ta'minotini yaxshilashdan iborat.

Tahlil va natijalar:

- Intensiv ekin turlarini ekish.

Butun Orol dengizni tiklash mumkin emas. Bu Amudaryo va Sirdaryodan keladigan yillik suv oqimini hozirgi o'rtacha 13km kubga nisbatan 4 baravar oshirishni talab qiladi. Yagona chora suvning 92%ni iste'mol qiladigan dalalarni sug'orishni qisqartirish bo'ladi. Bunday vaziyatda namlikni kam sevadigan ekinlarga o'tish, masalan, paxtani kuzgi bug'doy bilan almashtirish yordam beradi va yana paxta va sholi hamda boshqa texnik ekinlarning kam suv talab qiluvchi turlarini ekish lozim. Misol uchun mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan yangi Porloq 1-2-3-4-5-7, Ravnaq 1-2 g'o'za navlari qurg'oqchilikka, sho'rlanishga chidamli hamda tola sifati va hosildorligi yuqori.[7]




1- rasm. "Porloq" paxta navini ekish jarayoni

Porloq-4 g'o'za navi 2021 yilda Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklari va agroklasterlar tomonidan 25 ming gektar maydonda yetishtirilib, viloyat bo'yicha eng yuqori ko'satgichga ya'ni, gektaridan o'rtacha 50-55 sentnergacha hosil olishga erishildi. Ushbu g'o'za navlari Qashqadaryoning noqulay issiq garmisel sharoitiga o'zining bardoshlilikini ko'rsatdi. Bundan tashqari O'zbekiston sharoitida suvni kam talab qiluvchi 1tonna kapers yetishtirish uchun 500 kub m, cho'l jo'xori yetishtirish uchun 700kub m, 1tonna qo'y va echki go'shtini ishlab chiqarish uchun esa 1500 kub m gacha suv sarflanadi. Demak, ular suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarga nisbatan 10 baravar kam suv iste'molini talab etadi. Shuningdek mosh, loviya, no'xat va qizil loviya kabi qurg'oqchilikka chidamli dukkakli don ekinlarini ekish maqsadga muvofiq. [8]

- Dengiz maydonini qismlarga bo'lib saqlab qolish. Hidrotexnik inshootlarni takomillashtirish

2005 –yilda Qozog'iston tomonidan qurilga 13 kmlik to'g'on va gidravlik darvozasi bo'lgan Kichik orolni hech qayerga olib bormaydigan kanallar orqali suv olib chiqishni to'xtatib, qutqarib qoldi. O'shandan beri suv sathining ko'tarilishi va baliq populyatsiyasining ko'payishi kuzatildi. O'sha yilning noyabr oyida qurib bitkazilgan gidravik eshik suv ombor darajasini tartibga solish uchun xizmat qildi. Keyingi yozga kelib Kichik Orol suvi 2m ga ko'tarildi.



2 -rasm. Xalqaro orolni saqlash fondi

O'zbekistonda ham shu tajribani qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib bunda mamlakatimizda joylashgan dengizning g'arbiy qismining suv sathini ushlab turish va havza maydonini bosqichma bosqich kattalashtirish uchun to'g'onlar kaskadini qurish yani avval ko'lni ma'lum sathini ushlab turish va bu ishni uzoq muddatga davom ettirish zarur.

Bundan tashqari yurtimiz sug'orish tarmoqlarida foydalanilyotgan inshootlarni tubdan yangilash. Bir qator gidrotexnik inshootlarning keng ko'lamli qurilishi g'arbiy suv omborni tiklashga yordam berishi mumkun. Bu daryoni drenaj havzadagi sug'orish tizimini oqilona takomillashtirish orqali Amudaryo oqimi hajmini ancha mo'tadil oshirishni nazarda tutadi.[4]

- Dengizning qurigan o'rnidan samaraliy foydalanish

Orolning qurigan qismi juda katta tuz manbasiga aylangan bo'lib shimol va g'arbdan o'lkamiz hududiga kirib keluvchi shamollar tuzni mintaqa uchun eng katta havfga aylantirib qo'ydi. Hozirgi kunda bo'ronlar tuz, chang va zaharli kimyoviy moddalarni 500 km masofaga olib boradi. Shimoliy va shimoliy –sharqiy shamollar janubda joylashgan Amudaryo deltasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozircha dengizni qurigan qismini suv bilan to'ldirolmas ekanmiz uni o'simlik bilan to'ldirsak bo'ladi. Shuning uchun dengiz qurigan qismiga saksovul ko'chatlari ekib borilmoqda.

Bu o'simlik ekilishining asosiy sabablari:

“Cho'l malikasi” deya ta'riflanadigan saksovul sahroning najot daraxti. Qurg'oqchilikka moslashgan bu o'simlik bunday sahroda bioxilmaxillikni saqlab – ta'minlab beradi. Garchand baland o'smasada, uning tarvaqaylab ketadigan shox-shabballari cho'l o'simliklarini rivojlanishida panoh vazifasini o'taydi

Eng asosiysi ,bir tup saksovul 10 tonnadan 100 tonnagacha qum ko'chishining oldini oladi. Zamin sho'rlarini tortib olib, shamol yo'lini to'sadi, atrof musaffoligini boyitadi.[8]

Hozirgi paytda orolning qaqragan maydonlariga 15-20 tonnagacha saksovul urug'lari ekilmoqda

XULOSA:

Orol fojeasi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas sal kam yarim asr davomida shakllangan buning sababchisi ham bir yoki ikki kishi emas butun boshli jamiyat butun tizim bunga sababchi. Shunday ekan biz bu muammoni faqat yakdillik bilan uzoqni ko'zlab tuzilgan puxta reja asosida hal qishimiz mumkin va bunga majburmiz.



Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari

1. Xikmatov F., Yunusov G., Artiqova F. “Daryolar gidrologiyasi” T.:–2017
2. Shuls V. L., Mashrapov R., “O‘rta Osiyo gidrografiya si”, T., 1969
3. Рафиковна А. А. “Проблемы восстановления водного режима Аральского моря” (магистерская диссертация) Санкт–Петербург 2016
4. “Аральское море в начале XXI века физика, биология, химия” Москва, 2011
Г
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/08/07/porloq/>
7. <https://xs.uz/uz>
8. <https://ekolog.uz/185/>



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

**ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Алимбеков Жаҳонгир Худойқул ўғли ЖАЗО ТУШУНЧАСИ.....	5
Мамаюсупов Марс Нурмаметович “КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ ИШЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ РЕЙТИНГ БАҲОЛАШ ТАРТИБИ ТЎҒРИСИДА”ГИ НИЗОМНИНГ МАЗМУН- МОҲИЯТИ ТЎҒРИСИДА.....	7
Хусанов Саидмурод Жўраевич ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА ЗАМОНАВИЙ ВИДЕОКОНФЕРЕНЦАЛОҚА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ: ИНВЕСТИТОРЛАР УЧУН ҚУЛАЙ ЭЛЕКТРОН АДОЛАТ ТИЗИМИ.....	10
Жаббаров Толмас Рузимуродович ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА ШАРТНОМАНИ БЕКОР ҚИЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	12
Ibragimov Mirfayz Ikrom o‘g‘li XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING HUQUQIY ZARURATI.....	14
Sharipov Firdavs Xolnazarovich QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	18
Сайлиев Бекзод Шавкатович ЖАМИЯТДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАҲДИДГА СОЛУВЧИ ЖИНОЯТ- СУД ФАОЛИЯТИГА АРАЛАШИШ.....	23

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Rizayev Nodir Sobirovich JADIDLAR MEROSINI O‘RGANISHNING YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	26
Burkhanova Mamura Gulyamovna UZBEK INTELLIGENTSIA AND THE 20 th CENTURY EDUCATION.....	29

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ
ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

Элдор Туляков THINK TANKS КАК ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ МОСТЫ: РОЛЬ АНАЛИТИЧЕСКИХ ЦЕНТРОВ В УСТОЙЧИВОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ.....	32
---	----



**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Abdijaborova Rano Islamjon qizi

THE USAGE OF STYLISTIC DEVICES IN UZBEK AND ENGLISH WRITERS' WORKS.....35

Кутлимуратова Гавхар Куранбаевна

К ВОПРОСУ О СТЕРЖНЕВЫХ ЕДИНИЦАХ В СТРУКТУРЕ ПОСЛОВИЦ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ О ТРУДЕ).....37

TURAXONOVA BADIA OMONILLAYEVNA

TYPES OF LINGUISTIC DISCOURSES.....41

**АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Sauxanov Janibek Kaziyeovich Izimbetov Kadir Saparbayevich

DEMOGRAFIK JARAYONLARNI STATISTIK TADQIQ ETISH YO'NALISHLARI VA KO'RSATKICHLARI.....44

**ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Xalimbetov Farxad Bagibekovich

AHOLINING RASMIY BANDLIGINI RAG'BATLANTIRISHDA PENSIYA TIZIMINING AHAMIYATI.....48

Qutlug' Habibaxonim Xolmirzayeva,

LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES: ACTIVITIES AND MANAGEMENT CHARACTERISTICS.....51

Nurmanov Sherzod Xujayarovich

CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI QUYI MAJMUASI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI.....54

Мусабоев Рустам Алижонович

ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭПОХУ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....58

Усмонова Дилфуза Илхомовна Мусабоев Рустам Алижонович

ОСОБЕННОСТИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ ОРГАНИЗАЦИЙ СФЕРЫ УСЛУГ.....61

Рахмонов Хуршидбек Шавкат ўғли

ТИЖОРAT БАНКЛАРИ АСОСИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ МАЗМУНИ ВА УНИ ҲИСОБИНИ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ.....64

Туйчиев Анваржон Мухторжонович

ҚАШҚАДАРЁ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ГЛЭМПИНГ УЙЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ (‘‘КИТОБ ГЕОЛОГИЯ МИЛЛИЙ ТАБИАТ БОҒИ’’ МИСОЛИДА).....67



Nurmanov Sherzod Xo‘jayarovich

QORAKO‘LCHILIK TARMOG‘I SOHALARINI RIVOJLANTIRISH
IMKONIYATLARI.....70

Ибрагимова Найля Мурадовна

МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ ЧЕРЕЗ УЗБЕКИСТАН И
НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ ЕВРАЗИЙСКОЙ
ЛОГИСТИКИ.....75

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Илмидинова Гулнора Махмудовна

ИНТЕРАКТИВНЫЕ СРЕДСТВА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК
ИНОСТРАННОГО.....80

Nuradinov Furqatjon Rashidovich Abdiyeva Dilfuza

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KREATIV
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....85

Shahlo Nasreddinova Pulatova

TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA TARBIYACHINING KREATIV
YONDASHUVI.....88

Khaknazarova Zilola Azamatovna

THE ROLE OF NEUROPEDAGOGICAL AWARENESS IN FOREIGN LANGUAGE
TEACHERS’ CLASSROOM PRACTICES.....92

Нуржанова Замира Халимжановна

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК
ИНОСТРАННОГО.....95

Mukhlisa Sobirova

THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING ENGLISH TO AGRICULTURAL
STUDENTS IN MONOCENTERS.....98

Xoliyorova Malham Zoyirova Dilfuza Xayriddinova

INKLYUZIV TA‘LIM MUHITIDA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHNING
ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....101

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Quronboyev Zafarbek Shavkat o‘g‘li

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA JISMONIY TARBIYA SPORTNING
RIVOJLANISHI.....112

Qurbanova Ilmira Alisher qizi

YOSH BADMINTONCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH.....116

Xujabekov Mirzaahmad Absamatovich

ESHKAK ESHISH BILAN SHUG‘ULLANGAN SPORTCHILARNING
SOMATOMETRIK XUSUSIYATLARI.....119



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Qodirov Bobur Qodirovich

HEMIS TIZIMI KOMPONENTALARI O'RTASIDAGI BOG'LANISHNI
VIZUALLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI.....123

Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA OG'IR METALLARNING TA'SIRINI
YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI.....126

Мангитова Марям Сайлаубаевна

ТАЪЛИМДА CHATGPT НИНГ АҲАМИЯТИ.....129

Sidikjanov Ja'far Sobir o'g'li

ERKAKLAR KO'YLAGI ASOS KONSTRUKSIYASINI QURISHNING
ZAMONAVIY METODLARI TAHLILI.....132

БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Khaydarova Gavkhar Saidahmatovna, Karimova Muborakkhon Dilmurod qizi

CONSERVATIVE TREATMENT OF UNILATERAL VOCAL FOLD PARALYSIS
AFTER THYROIDECTOMY.....137

Ҳошимов Бобур Лукмонович, Хатамов Рустамжон Исломжон уғли

РЕСПИРАТОР ДИСТРЕСС СИНДРОМИДА МУДДАТДАН ОЛДИН ТУҒИЛГАН
ЧАҚАЛОҚЛАРДА БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ
МОРФОЛОГИЯСИ.....139

Ҳошимов Бобур Лукмонович, Хатамов Рустамжон Исломжон уғли

РЕСПИРАТОР ДИСТРЕСС СИНДРОМИДА МУДДАТИДА ТУҒИЛГАН
ЧАҚАЛОҚЛАРДА БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ.....142

ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Шахнозахон Мухаммад кизи Аглоходжаева, Азизахон Дилшодовна
Ташпулатова**

РАЗРАБОТКА АЛЬТЕРНАТИВНОЙ МЕТОДИКИ ДЛЯ КОЛИЧЕСТВЕННОГО
ОПРЕДЕЛЕНИЯ L-ГЛУТАМИНОВОЙ КИСЛОТЫ В КОМБИНИРОВАННОМ
ИНФУЗИОННОМ РАСТВОРЕ.....145

**Шахнозахон Мухаммад кизи Аглоходжаева, Азизахон Дилшодовна
Ташпулатова**

РАЗРАБОТКА АЛЬТЕРНАТИВНОЙ МЕТОДИКИ ДЛЯ КОЛИЧЕСТВЕННОГО
ОПРЕДЕЛЕНИЯ L-АРГИНИНА В КОМБИНИРОВАННОМ ИНФУЗИОННОМ
РАСТВОРЕ.....148



АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Kurbanbayeva Xurshidaxon Shuxratovna

XORAZM VOHASI SHAROITIDA KARDU-1000 MAKKAJO'XORI NAVINING
BIOLOGIYASI VA OZIQLANTIRISH TA'SIRINI
O'RGANISH.....151

ГЕОГРАФИЯ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Qobilova Muattar Shukurjon qizi

OROL EKOLOGOIK MUAMMOSI UNGA BERILAYOTGAN E'TIBOR
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....156

**TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР” МАВЗУСИДАГИ
РЕСПУБЛИКА 77-КУП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

(2-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 30.06.2025